HISTOMAP

JALOL BOLTAYEV
(97) 299-00-66

6

TARIX: QADIMGI DUNYO





OPTIMAL QO‘LLANMA



TARIX VA GEOGRAFIYA FANLARIDAN KAFOLATLANGAN O‘QUV KURSI! BU QANDAY?

«O‘qishga kirish uchun yillab tayyorgarlik ko‘rish, bir yil o‘qishdan yiqilish, vunderkind bo‘lish shart emas! Kafolatlangan (hujjat bilan) va aniq maqsadlarga yo‘naltirilib ishlab chiqilgan o‘qituvchi metodi va o‘sha metodga javob berish yetarli!»

— Abituriyentga mas’ul shaxs (ota-ona) bilan mas’ul repetitor Jalol Boltayev o‘rtasida SHARTNOMA (NATIJA KAFOLATI TO‘G‘RISIDA) tuziladi. Shartnomaga muvofiq abituriyentlarning natijalari (o‘qishga kirishi) kafolatlanadi. Agarda abituriyent OTMga kira olmasa, shartnomaga muvofiq kurs to‘lovi qaytarib beriladi.

KURS DASTURI HAQIDA QISQACHA:

✓ Har bir abituriyentning darsliklar kesimida o‘zlashtirish darajasi Jalol Boltayev ishlab chiqqan dastur bo‘yicha 100 % lik hisobda aniqlab boriladi va abituriyent natijalari haqida unga mas’ul shaxsga oyma-oy hisobot beriladi.
✓ Kurs dasturi/metodi 1 yil ichida maksimal natijaga erishishga mo‘ljallangan.
✓ Kurs dasturi/metodi haqida batafsil ma’lumot: https://telegra.ph/TARIX-GEOGRAFIYA-HUQUQ-FANLARIDAN-KAFOLATLANGAN-OQUV-KURSI-BU-QANDAY-08-24

O‘quv kurslarimizga marhamat!

- Repetitorlar: **Jalol Boltayev**
- Telefon: **(97) 299-00-66**
- Manzil: **Xorazm v. Urganch sh., «ARASTU» o‘quv markazi**
- Mo‘ljal: **«Hyundai» avtosaloni yoni**



TARIXIY VA AFSONAVIY SHAXSLAR HAQIDA AFIFBO TARTIBIDAGI UMUMIY MA’LUMOTLAR

-A-

>ALARIX – Germanlarning got qabilalari yetakchisi.

Milodiy 410-yilda Rimga hujum qilgan. Rimliklar Alarix bilan muzokara boshlaganlar, ammo tunda qullar darvozalarni ochib bergan, Alarix qo‘shinlari Rimni uch kun davomida talagan. Germanlar qo‘rg‘onchalarini o‘rab turgan devorlarni mustahkamlash uchun Rim ibodatxonalari va kutubxona binolaridan tosh taxtalarni ko‘chirib ketganlar.

>ALEKSANDR MAKEDONSKIY (mil. avv. 356–323-yillar) – Makedoniya hukmdori (mil. avv. 336–323-yillar). Makedoniya podshosi **Filipp II** ning o‘g‘li. Keyingi hukmdor o‘g‘li Kichik Aleksandr.

Aleksandr qadimgi yunon faylasufi **Aristotel**dan ta’lim olgan. Otasi Filipp II ning Yunonistoniga qarshi yurishlarda qatnashib, harbiy san’atni puxta o‘rgangan. Mil. avv. 328-yilda Beotiya yaqinidagi Xeroniya shahri yaqinida yunonlar bilan hal qiluvchi jangda makedonlarning g‘alaba qozonishida muhim rol o‘ynagan. Mil. avv. 336-yilda Filipp II vafot etgach, 20 yoshida Makedoniya taxtiga o‘tirgan. Hukmronligi davrida o‘z tasviri tushirilgan tangalar zarb ettirgan.

Mil. avv. 334-yilda Sharqqa yurish boshlagan. Bu yurish 10 yil davom etgan. Ana shu yurish davomida Kichik Osiyo, Suriya, Misr, Eron va Hindiston hududlarini egallagan. Aleksandr bu hududda o‘z hukmronligini mustahkamlash maqsadida bosib olingan shaharlarga yunonlarni joylashtirgan.

U sharqqa yurish boshlagan paytda Ahamoniylar davlatini Doro III boshqarayotgan edi. Mil. avv. 330-yilda uning qo‘shinlarini mag‘lub etib, ahamoniylar davlatiga barham bergan.

Aleksanr Hindistonga yurish qilishdan oldin qo‘shinlarining orqa tomonini xavfsizlantirish maqsadida Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo‘ysundirishga qaror qilgan. Birinchi bo‘lib uning yo‘lini to‘sgan shahar Baqtriya poytaxti Baqtra (Zariasp) bo‘ldi. Bu vaqtda ahamoniylar sulolasining vakili **Bess** Baqtriyaning satrapi bo‘lgan. U Baqtra shahrini dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tarafi ga qochib ketgan. Makedoniyalik Aleksandr ustozi, Aristotelning Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o‘tgani, ikkalasi ham mag‘lubiyatga uchragani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi lozimligi to‘g‘risidagi maslahatini yodda tutar edi. Mil. avv. 329-yilda Makedoniyalik Aleksandr qo‘shinlari Oks – Amudaryodan o‘tib oldilar. Qo‘shinlar yurishlari yo‘nalishida esa Nautaka (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va Maroqanda shahri (Samarqand) turar edi. Mil. avv. 329-yilda yunon-makedonlar Maroqandani egalladi. Aleksandr qo‘shinlarning bir qismini shu yerda qoldirib, o‘zi Kurushkat (Kiropolis)

shahrini bosib olish u chun asosiy kuchlar bilan Sirdaryo qirg‘oqlari sari yurdi. So‘g‘diyona xalqi bosqinchilarga qarshi kurashga chiqadi. Tez orada so‘g‘diylarga baqtriyaliklar va saklar qo‘shiladilar. Qo‘zg‘olonga **Spitaman** boshchilik qiladi. Ancha qo‘shin to‘plagan Spitaman Maroqandani qamal qildi. Aleksandr qamalda qolganlarga yordamga uch mingga yaqin jangchidan iborat qo‘shin jo‘natadi. Qadimda «Politimet» deb atalgan Zarafshon daryosi bo‘yida makedonlarga pistirma qo‘ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Shunda Aleksandrning o‘zi qo‘zg‘olonni bostirishga otlanadi. Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitaman qamalni to‘xtatadi va o‘z qo‘shinlarini sahro sari boshlab ketadi. Saklarga qarshi kurash uchun Aleksandr Sirdaryo bo‘yida, Xo‘jand yaqinida qal’a barpo etish to‘g‘risida buyruq beradi. Bu qal’a Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb ataldi. Aleksandr Maroqandada maxsus harbiy qo‘shin qoldirib, asosiy qo‘shinlari bilan qishlash uchun Zariasp (Baqtra)ga jo‘nadi. O‘sha yilning bahorida Aleksandr qo‘zg‘olonni bostirish chorasini ko‘radi. O‘z lashkarlarini uch qismga bo‘lib, So‘g‘diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholini qirib tashlaydi. Mil. avv. 328-yil kuzida Spitaman bilan hal qiluvchi jangga kiradi. Jangda Spitamanni yengib, uni cho‘lga chekinishga majbur etadi. O‘sha yerda Spitaman xoinlarcha o‘ldiriladi. Aleksandr so‘g‘d zodagonlari – **Xoriyen** va **Oksiart**ning Hisor tog‘larida joylashgan qal’alarini qo‘lga kiritib, Oksiartning qizi **Ravshanak**ka uylanadi. Shunday qilib, Makedoniyalik Aleksandr e’tiborli so‘g‘d zodagonlaridan biri bilan qarindosh tutinadi. O‘rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urindi, biroq uncha katta bo‘lmagan hududni: 1) Marg‘iyona, 2) Baqtriya, 3) So‘g‘diyona, 4) hozirgi Bekobod va Xo‘jand orasida Sirdaryo bo‘ylarini bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘ldi, xolos. 1) Xorazm, 2) Toshkent vohasi va 3) Farg‘ona mustaqilligicha qoldi.

Makedoniyalik Aleksandr O‘rta Osiyoni zabt etganidan so‘ng Panjob o‘lkasi hududiga bostirib kiradi. Aleksandr katta qiyinchiliklar bilan Hind vodiysigacha yetib borib, shundan keyin Bobilga qaytib ketadi. Aleksandr qoldirgan qo‘shin mahalliy aholining qarshiligiga bardosh bera olmay, Hindistondan ketishga majbur bo‘ladi. Bu yerda yunon-makedon qo‘shinlariga qarshi sarkarda **Chandragupta** sardorlik qilgan.

Yunon-makedon qo‘shinlarining bosqinchlik yurishlari O‘rta Osiyo yerlarini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirilib ketdi, ko‘plab shaharlar vayron etildi. Yunon tarixchilarining yozishicha, Makedoniyalik Aleksandr O‘rta Osiyoda bir nechta shaharlar qurdirgan. Bu shaharlar uning nomi bilan Oksdagi Aleksandriya, Aleksandriya Esxata, Marg‘iyona Aleksandriyasi va hokazo tarzida atalgan. Ularning ba’zilari vayron etilgan So‘g‘diyona va Baqtriya shaharlari o‘rnida, boshqalari esa tayanch qal’alar sifatida yangidan qurilgan. Bu shaharlarda yunon-makedonlarning piyoda va otliq askarlari joylashtirilgan. Bu askarlarning siyraklashgan safl ari Makedoniya tartibida qurollantirilgan Baqtriya va So‘g‘diyona yoshlari hisobiga to‘ldiriladi.

Mil. avv. 323-yil Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi. Uning vafotidan so‘ng tug‘ilgan o‘g‘li **Kichik Aleksandr** rasman hukmdor deb e’lon qilinsa-da, u barpo etgan davlat uch qismga: Makedoniya, Misr va Suriyaga bo‘linib ketdi. Bu davlatlar Aleksandrning eng yaqin lashkarboshilari tomonidan boshqarildi.

Aleksandr haqda ko‘plab asarlar yozilgan. Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf mil. I asrda «Makedoniyalik Aleksandr tarixi», mil. II asrda yunon tarixchisi Arrian «Aleksandrning harbiy yurishli» nomli asarlarni yozganlar. Aleksandr haqida turli afsonalar ham to‘qilgan. Ulardan birida aytilishicha, Aleksandr qadimgi yunon faylasufi **Diogen**ga, «Senga qanday yordam berishim mumkin?» deb so‘raganida, Diogendan «Nariroq tursang-chi, quyoshni to‘sma!» degan kinoya javob olgan.

>ALEKSANDR (KICHIK ALEKSANDR) (mil. avv. IV asr) – Makedoniya hukmdori (mil. avv. IV asr). **Filipp II** ning o‘g‘li **Aleksandr**ning o‘g‘li. Salavkiylar davlati asoschisi **Salavk** uning lashkarboshilaridan biri bo‘lgan.

>ANTIOX – Salavkiylar davlati hukmdori. Saltanat asoschisi **Salavk**ning (mil. avv. 312–280-yillar) o‘g‘li. Mil. avv. 280-yilda taxtga o‘tirgan.

Antiox otasi hukmdorligi davrida mamlakatning sharqiy viloyatlari – Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyonaga noib etib tayinlangan. Mil. avv. 280-yilda Salavkning vafotidan so‘ng, mamlakatni to‘liq boshqarishga kirishgan. 20 yilga yaqin mamlakatni idora etgan.

>ARISTOFAN – qadimgi yunon shoiri. U komediyalar ustasi bo‘lgan.

>ARISTOTEL, sharqda ARASTU (mil. avv. IV asr) – qadimgi yunon olimi.

To‘plangan bilimlarni alohida tarmoqlarga ajratdi va ularni mustaqil fanlar sifatida ta’riflab bergan. **Makedoniyalik Aleksandr**ning ustozi bo‘lgan.

Manbalarga ko‘ra, Aristotel Aleksandrga Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o‘tgani, ikkalasi ham mag‘lubiyatga uchragani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi lozimligini uqtirgan edi.

>ARRIAN – Qadimgi yunon tarixchisi. Milodiy II asrda «Aleksandrning harbiy yurishlari» («Aleksandr anabasisi») deb nomlangan asar yozgan.

>ARXIMED – Qadimgi yunon matematigi. Sitsiliya orolining Sirakuza shahrida tug‘ilgan.

Richag (dastak) qonunini ishlab chiqqan va «Menga tayanch nuqtasini topib bersangiz, Yerni ag‘darib yuboraman!» degan mashhur iboratni aytgan. Shuningdek, «Evrika» («Topdim, topdim!») qiyqirg‘i ham unga tegishlidir. Rimliklar Sirakuzani bosib olganlarida matematikaga oid bir masalani yechishga urinib qumda chizmalar chizgayotgan bo‘lgan. Rimlik askar uni qilich bilan urganida «Mening chizmalarimga tegma!» deyishga ulgurgan, xolos.

Arximedning yorug‘likni ko‘zgu orqali jamlab, Sirakuza ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida hikoya mavjud.

>ASHOKA – Qadimgi Hindistonning Maurya davlati hukmdori (mil. avv. III asr). Uning davrida Maurya rivojlanishda yuksak taraqqiyotga erishgan.

>ATTILA (milodiy V asr) – Xunnlar hukmdori. Attila boshchiligidagi xunnlar dastlab Sharqiy Rim imperiyasi (Vizantiya)ga hujum uyushtirgan. 452-yilda Italiyaga bostirib kirgan.

>AXILLES – Gomerning «Iliada» dostoni bosh qahramoni. Axillesning onasi go‘dakligida o‘g‘lining mangu barhayot bo‘lishini istab, uni Stiks daryosiga botirib oladi. Ayni paytda Axillesning onasi ushlagan tovoniga suv tegmasdan qoladi. Janglardan birida Axilles tovoniga tekkan o‘qdan halok bo‘lgan. O‘sha kezlardan beri «Axilles tovoni» iborasi nozik joyni anglatadi

-B-

>BESS (mil. avv. III asr) – Ahamoniylarning Baqtriyadagi satrapi. Ahamoniylar sulolasidan.

Mil. avv. 330-yilda **Makedoniyalik Aleksandr** ahamoniylarning so‘nggi hukmdori **Doro III** ni mag‘lub etgach, Amudaryoning narigi tomonida yashovchi elatlarni bo‘ysundirishga qaror qilib, qo‘shinlari bilan daryo tomon harakatlana boshlaydi. Birinchi bo‘lib uning yo‘lini to‘sgan shahar Baqtriya poytaxti Baqtra (Zariasp) edi. Bess shaharni dushmanga qoldirib, Amudaryoning narigi tomoniga qochib ketgan.

>BRUT (mil. avv. I asr) – Qadimgi Rimda **Sezar**ga qarshi uyushtirilgan fitnaning boshlig‘i.

Sezar uni o‘ziga do‘st hisoblagan. Mil. avv. 44-yilda Brut boshchiligidagi fitnachilar senatdagi majlis paytida Sezarni o‘ldirishgan. Shundan so‘ng Rimda fuqarolar urushi boshlangan. Brut respublikani qayta tiklashga urinib ko‘rgan. Biroq hamma senatorlar ham avvalgi tartibotlarga qaytishni istamas, ularning ko‘pchiligi o‘z boyligini Sezar hukmronligi davrida qo‘lga kiritgan edi. Brut Yunonistonga qochib ketishga majbur bo‘lgan. U yerda qo‘shin to‘plab Rimga jiddiy xavf sola boshlagan. Ammo Sezarning jiyani **Oktavian** va **Mark Antoniy** o‘zaro ittifoq tuzib, Brutni tor-mor etishgan.

-D-

>DEDAL – qadimgi yunon arxitektori va haykaltaroshi. Minos degan podsho uchun mashhur Labirint saroyini barpo etgan.

>DEMETRIY – Yunon-Baqtriya hukmdori. Yunon-Baqtriya hukmdori **Yevtidem**ning o‘g‘li. Uning davrida davlat eng katta sarhadlarga ega bo‘lgan. Demetriy Hindistonning bir qismini zabt etgan.

>DEMOKRIT – qadimgi yunon faylasufi. Bolqon yarimoroli sharqida joylashgan Frakiyada tug‘ilgan. U faylasuf **Geraklit**ning* Yer yuzidagi hamma narsa, olovdan kelib chiqqan, degan fikriga e’tiroz bildirib, bizni qurshab turgan hamma narsa ko‘zga ko‘rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan degan ma’nodagi fikrni bayon etgan.

>DEMOSFEN (mil. avv. IV asr) – Qadimgi yunon notig‘i. O‘smirligida duduq bo‘lgan, dengiz shovqinidan balandroq baqirish orqali mashq qilib, keyinchalik mashhur notiq bo‘lib yetishgan. Yunon polislarini Makedoniya podshosi **Filipp II** ga qarshi kurashishga da’vat etgan.

>DIODOT (mil. avv. III asr) – Yunon-Baqtriya podsholigi asoschisi.

Dastlab Salavkiylar davlati hukmronligi ostidagi «Ming shaharli mamlakat» deya ta’riflangan Baqtriya viloyatining noibi bo‘lgan. Mil. avv. 250-yilda Baqtriyani mustaqil deb e’lon qilib, o‘zini podsho deb e’lon qilgan. Diodotdan keyin Yunon-Baqtriyada hukmronlik **Yevtidem**ga o‘tgan.

>DIOMED – mifologik shaxs. Afsonaga ko‘ra, Frakiya podshosi bo‘lgan. Qadimgi yunon afsonaviy qahramoni **Gerakl**ning o‘n ikki jasoratidan biri uning yovvoyi otlarini bo‘ysundirganligi edi.

>DIOGEN – Qadimgi yunon faylasufi. U «Insonda hech qanday ehtiyojlar bo‘lmasligi shart» degan fikrni o‘z ta’limotiga asos qilib olgan edi. Hayotdagi barcha qulayliklardan voz kechgan Diogen bir bochkada kun kechirgan. Afsonalarga ko‘ra, **Makedoniyalik Aleksandr** undan: «Senga qanday yordam berishim mumkin?» deb so‘raganida, Diogen: «Nariroq tursang-chi, quyoshni to‘sma!» deya kinoya qilgan ekan.

>DORO I (mil. avv. VI–V asrlar) – Qadimgi Erondagi Ahamoniylar davlatining hukmdori (mil. avv. 522-yildan 480-yillargacha). Mil. avv. 522-yilda **Kambiz II** dan (mil. avv. 530–522-yillar) so‘ng taxtga chiqqan.

Doro I hukmronligining birinchi yili Marg‘iyonada fors istilochilariga qarshi xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarilgan (mil. avv. 522-yil). Qo‘zg‘olonga **Frada** rahbarlik qiladi. Qo‘zg‘olonchilar bilan fors qo‘shinlari o‘rtasida hal qiluvchi jang mil. avv. 522-yilda bo‘lib o‘tgan. Fradaning o‘zi asirlikka olinadi va qatl etiladi. Bu voqea haqidagi ma’lumotlar Doro I buyrug‘iga binoan o‘yib yozilgan, Erondagi Kirmonshoh yaqinida joylashgan Behistun qoyatosh yozuvlarida qayd etilgan.

Doro I hukmronligining uchinchi yili – mil. avv. 519-yilda saka-tigraxaudalar ustiga yurish qilgan. Behistun bitiklariga ko‘ra, ularning sardori **Skunxa**ni mag‘lub etib, ularga boshqa sardor tayinlagan.

Ayni paytda bu yurish haqida saklar rivoyatiga asoslanib tarixchi Poliyen (mil. avv. II asr) keltirgan Shiroq rivoyati ham mavjud. Unda keltirilishicha, saklar qabilasidan bo‘lgan cho‘pon **Shiroq** forslarning qoshiga kelib, ularni so‘qmoq orqali saklarning orqa tomoniga boshlab borishni aytadi. Fors qo‘shinlari suvga tashna holda yetti kun cho‘lda kezishgan, o‘zlarining aldanliklarini sezib qolib, cho‘ponni o‘ldiradilar. Ammo Shiroqning jasorati tufayli Doro I ning bu yurishi muvaffaqiyatsiz tugaydi.

Makedoniyalik Aleksandrning ustozi Aristotel ham Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o‘tgani, ikkalasi ham mag‘lubiyatga uchragani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi lozimligini unga uqtirgan edi.

Doro I Qora dengiz bo‘ylarida yashovchi skiflar ustiga ham yurish qilgan. Uning hukmronligi davrida Hindiston shimolidan O‘rtayer dengiziga qadar cho‘zilgan ulkan davlat barpo etilgan.

Doro va **Kserks**ning Persepol shahrida yuz ustunli zali bo‘lgan. Saroyining qoldiqlari saqlanib qolgan. Saroy afsonaviy va xayoliy qushlar tasviri bilan bezatilgandi. Saroy devorlaridagi bo‘rtma naqshlarda ahamoniylar bo‘ysundirgan ko‘pgina elatlar vakillarining tasvirlari saqlanib qolgan. Ular, asosan, Fors shohlariga o‘lpon keltirayotgan holatda tasvirlangan.

Mil. avv. V asr boshlarida Doro I Yunonistonga tahdid sola boshlagan. O‘zini «kunchiqardan kunbotargacha barcha mamlakatlarning birdan bir egasi» sifatida o‘z elchilarini yunon shaharlariga jo‘natib, ulardan «yer va suv» talab qilgan. Afina va Sparta forslarga itoat etmaslikka ahd qilishgan. Afinaliklar elchilarni o‘ldirib, qoyadan tashlab yuborgan bo‘lsa, spartaliklar esa ularni quduqqa tashlab «Suvni ham, yerni ham quduq tubidan yetarlicha olasizlar» deya kinoya qilishgan ekan. Doro I ning Kichik Osiyodagi yunon koloniyalari va Bolqon yarimoroli sharqida joylashgan Frakiyani bosib olishi yunon-fors urushlari boshlanib ketishiga sabab bo‘lgan. Uning hukmronligi davrida yunon-fors urushlaridagi mashhur janglardan biri – Marafon jangi bo‘lib o‘tgan (mil. avv. 490-yil). Attikadagi Marafon tekisligida bo‘lib o‘tgan bu jangda Doro I qo‘shinlari yunonlarga nistaban ko‘p bo‘lsa-da afinalik sarkarda **Miltiad**dan mag‘lubiyatga uchragan. Yettita kemasidan ayrilgan Doro I chekinishga majbur bo‘lgan. Bu jangdagi g‘alabani Afinaga yetkazish uchun bir jangchi 42 km yo‘lni chopib o‘tgan va «G‘alaba! G‘alaba» deb jon bergan. Yangi urushga tayyorgarlik ketayotgan paytda Doro I vafot etgan. Yunonistonga qarshi uning o‘g‘li va vorisi Kserks yurish boshlagan.

Doro I butun mamlakat uchun «darik» deb nomlangan yagona oltin tangani muomalaga kiritdi. Qadimgi Fors podsholigi qarorgohi Persepol shahridan O‘rtayer dengiziga qadar «shoh yo‘li» degan savdo yo‘lini qurdirdi. Qo‘shinlarni qaytadan tuzdi. Mil. avv. 522-yilda saltanatni «satrapliklar» deb nomlangan alohida harbiy-ma’muriy o‘lkalarga taqsimladi.

>DORO III (mil. avv. IV asr) – qadimgi Erondagi Ahamoniylar davlatining so‘nggi hukmdori.

Mil. avv. 330-yilda **Makedoniyalik Aleksandr** bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchragan. Shu tariqa ahamoniylar davlati barham topgan.

>DRAKONT – Afina hukmdori (mil. avv. VII asr).

Mil. avv. 621-yilda Drakont xalq boshqaruvini bekor qilgan qonunlarni amalga kiritgan. Bu qonunlar shu qadar qattiq va ayovsiz ediki, afinaliklar ularga «siyoh qolib, qon bilan yozilgan», deya ta’rif berishgan. Qonunlarni arzimas darajada buzganlik uchun ham Drakont bitta jazo – o‘lim jazosi belgilagan. Avvaliga afinaliklar bu qonunlarga itoat etishgan, so‘ngra norozi bo‘la boshlashgan va Drakontni shahardan haydab yuborishgan.

>DYUPPERON A. – fransuz olimi. Ilk marotaba «Avesto»ning alohida qismlarini tarjima qilgan.

-E-

>ENKIDU – Afsonaviy shaxs. Rivoyatlarga ko‘ra, Uruk shahri podshosi **Gilgamish**ning do‘sti bo‘lgan. Rivoyatda aytilishicha, Enkidu va Gilgamish yovuz maxluqotlarga qarshi kurash olib borgan. Shuning uchun ma’budlar Enkiduni jazolaydilar va u halok bo‘ladi.

-F-

>FIDIY (mil. avv. V asr) – qadimgi yunon haykaltaroshi. Afinada do‘sti **Perikl** strategligi davrida Parfenon barpo etilishi va Akropolning qayta qurilishiga boshchilik qilgan. Uning mashhur asari, Yer yuzidagi yetti mo‘jizaning biri hisoblangan olimpiyalik Zevs haykalidir.

>FEODOSIY (milodiy ?–395-yillar) – Rim imperatori. Milodiy 395-yilda vafot etgan. Uning o‘limidan so‘ng Rim imperiyasi uning ikki o‘g‘li o‘rtasida G‘arbiy va Sharqiy qismlarga ajralib ketgan.

>FILIPP II (mil. avv. ?–336-yillar) – Makedoniya podshosi. **Aleksandr Makedonskiyning** otasi.

Filipp II Yunonistonga harbiy yurishlarni amalga oshirgan. Qo‘shinlari 16 qatordan iborat falanga tuzilishi saflangan. Falanga qanotlarini otliqlar himoya qilgan. Yunonistonlik mashhur notiq **Demosfen** Ellada shaharlarini kezib, Filipp II ga qarshi aholini birlashishga da’vat etgan.

Mil. avv. 338-yilda Beotiyadagi Xeroniya shahrida yunonlar bilan hal qiluvchi jangga kirgan. Jangda o‘g‘li Aleksandrning manyovri tufayli g‘alaba qozonishgan. Shundan so‘ng Yunoniston Makedoniyaga qaram bo‘lib qolgan.

Ammo Filipp II o‘zini yunonlar podshosi deb e’lon qilmagan. U yunonlar bilan birlashib, forslarga qarshi ittifoq tuzgan.

Mil. avv. 337-yilda Spartadan tashqari barcha yunon shahar-davlatlarining vakillari Korinfga yig‘ilib, Makedoniya hokimiyati ostida forslarga qarshi yurish maqsadida yunon shaharlari ittifoqini tuzishgan. Ular murosada tinch-totuv yashash, o‘zaro urushlar olib bormaslik va bir-birining ichki ishlariga aralash maslik to‘g‘risida bir qarorga kelganlar. Biroq Filipp II forslarga qarshi yurishini amalga oshira olmasdan, mil. avv. 336-yilda vafot etgan. Shundan so‘ng o‘g‘li Makedoniyalik Aleksandr hukmdor bo‘lgan.

>FRADA (mil. avv. VI asr) – Marg‘iyonada fors istilochilari (ahamoniylar hukmdori Doro I)ga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon rahbari. Mil. avv. 522-yilda bo‘lib o‘tgan hal qiluvchi jangda asirlikka olingan va qatl etilgan.

-G-

>GANNIBAL – Karfagen sarkardasi. Mil. avv. III–II asrlarda bo‘lib o‘tgan Puni urushlarida Karfagen armiyasiga qo‘mondonlik qilgan.

Gannibal boshchiligidagi karfagenliklar birinchi Puni urushlaridagi mag‘lubiyatdan so‘ng, Ispaniyaning katta qismini bosib olgan.

Gannibal qo‘shinlarining Ispaniyadan Italiyaga qarshi yurishlari tufayli ikkinchi Puni urushi boshlangan. Uning armiyasi Alp tog‘laridan oshib, Shimoliy Italiya hududiga bostirib kirgan va mil. avv. 216-yilda Kann yaqinidagi jangda rimliklar armiyasini tor-mor etgan. Bu jangda 70 ming rimlik legioner halok bo‘lgan.

Italiya aholisi Gannibalni qo‘llab-quvvatlamagan, chunki Karfagen yollanma qo‘shinlari mamlakatni talon-taroj qilib tashlagan edi. Rimlik sarkarda **Ssipion**ning kutilmaganda o‘z qo‘shinlari bilan Afrika qirg‘og‘iga kelib tushganidan xabar topgan Gannibal Karfagenni himoya qilishga otlangan, ammo mil. avv. 202-yilda uning lashkari Zama shahri yaqinida (Shimoliy Afrika) rimliklar tomonidan tor-mor etildi. Shu tariqa ikkinchi Puni urushi yakunida ham Karfagen mag‘lub bo‘lgan.

>GENRIX SHLIMANN – nemis olimi, XIX asrning oxirida Gomer hikoyalarini tadqiq qilib, Troya joylashgan yerni aniqlagan. Olim Turkiyadagi Hisorlik tepaligi xarobalari hududida qazishma ishlarini boshlab yuborgan va chindan ham Troya qoldiqlarini topilgan.

>GERAKL – qadimgi yunon mifologik qahramoni.

Afsonalarda aytilishicha, u Olimpiya o‘yinlariga asos solgan. Shuningdek, sher bilan olishib uni mag‘lub etgani, to‘qqiz boshli ajdarni yenggani, Frakiya podshosi Diomedning yovvoyi otlarini bo‘ysundirgani kabi o‘n ikki jasorati tufayli Olimp tog‘idagi xudolar saltanatida faxrli o‘ringa ega bo‘lgan ekan.

Qadimgi yunon haykaltaroshlaridan biri arslonni yenggan Gerakl haykalini zo‘r mahorat bilan ishlagan.

>GERAKLIT – qadimgi yunon faylasufi.

Yer yuzidagi hamma narsa, olovdan kelib chiqqan, deb uqtirgan. «Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas», «Hamma narsa oqadi, hamma narsa o‘zgaruvchandir» degan mashhur hikmatlar unga teqishlidir.

Frakiyalik **Demokrit*** degan faylasuf Geraklit fikriga e’tiroz bildirib, u bizni qurshab turgan hamma narsa ko‘zga ko‘rinmaydigan mayda-mayda zarralar – atomlardan tashkil topgan degan ma’nodagi fikrni bayon etgan.

>GERODOT (mil. avv. V asr) – qadimgi yunon tarixchisi.

«Tarix otasi» deya e’tirof etilgan. Turli mamlakatlarga sayohat qilib to‘qqiz kitobdan iborat «Tarix» asarini yozgan. Unda o‘lkamizning qadimgi aholisi to‘g‘risida ham ma’lumotlar beriladi.

Gerodot Afina hukmdori **Perikl**ning (mil. avv. 443–429-yillar) do‘sti bo‘lgan.

U o‘z asarida Ahamoniylar hukmdori Kir II qo‘shinlari va To‘maris boshchiligidagi massagetlar jangini «Bu jang… barcha janglardan ham dahshatliroq edi» deya ta’riflangan. Shuningdek, Kserks boshchiligida yunonlar ustiga yurish qilgan o‘rtaosiyolik jangchilar qurol-yarog‘lari tavsifi Gerodotdan bizga ma’lumdir.

>GILGAMISH – Mesopotamiyaning afsonaviy qahramoni, tarixiy shaxs, Uruk shahri podshosi.

Afsonada aytilishicha, Gilgamish dunyoga kelgandan keyin, mamlakat hukmdori bo‘lmish bobosi nevarasi undan taxtni tortib olishidan vahimaga tushib, Gilgamishni jarga tashlab yuborishga farmoyish beradi. Jarga uloqtirilgan Gilgamishni uchib ketayotgan burgut tutib olib, ko‘tarib ketadi va uni bir bog‘bonga eltib beradi. Bog‘bon Gilgamishni mehr bilan parvarishlab tarbiyalaydi. Balog‘atga yetgan Gilgamish bobosidan hokimiyatni tortib oladi va o‘zi Uruk shahrini boshqarishga kirishadi. Gilgamish Enkidu degan pahlavon bilan do‘st tutinadi. Ikkalasi bir bo‘lib yovuz maxluqotlarga qarshi kurashadilar, shu sababli ma’budlar **Enkidu**ni jazolaydilar va u halok bo‘ladi. Boqiy hayotga erishish uchun Gilgamish dengiz tubida o‘sadigan sehrli giyohni izlab topadi, uni o‘z xalqi bilan baham ko‘rishga qaror qiladi. Ammo iziga qaytayotganida bir ko‘lga cho‘milgani tushadi, bu paytda, gulning isini ilon sezib qoladi va mehrigiyoni o‘g‘irlab ketadi. O‘shandan beri, ilonlar har yili po‘stini tashlab yasharishar emish. Gilgamish esa jonajon shahri devorlari uni himoya etishini, ezgu ishlari uni umrboqiy qilishini tushunib yetadi.

Gilgamish haqidagi rivoyat mixxat yozuvida bizgacha yetib kelgan. Uning bo‘rtma tasviri Ossuriya davlatiga tegishli deb hisoblanadi.

>GOMER – qadimgi yunon shoiri. Troya urushi haqidagi «Iliada» va Odissey sarguzashtlari haqidagi «Odisseya» asarlarining muallifi.

-I-

>ISO MASIH (milodiy I asr) – diniy adabiyotlarga ko‘ra, Iso Masih Allohning elchisi bo‘lib, unga «Injil» («Yevangeliya» – yunonchadan «Xushxabar») nozil qilingan. Xristianlar ta’limotiga ko‘ra, Iso Masih bu dinga asos solgan.

Milodiy I asr boshlarida Rim hokimiyati ostida bo‘lgan Falastin yerlaridagi Vifleem shahrida «Xudoning o‘g‘li» nomini olgan Iso tug‘ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlagan.

Rivoyatlarga ko‘ra, 30 yoshida Iso o‘n ikki nafar havoriylari (apostollar) bilan Falastin bo‘ylab sayohat qilib, Xudo oyatlari haqida hikoya qilib beradi va mo‘jizalar ko‘rsatadi – yashashdan umidini uzgan, tuzalmas xastalarni davolaydi. Mahalliy ruhoniylar Iso payg‘ambarni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, uni o‘lim jazosiga mahkum etadilar. Rim noibi **Pontiy Pilat** bu hukmni tasdiqlagan. Rivoyatlarga ko‘ra, Isoni yer yuzidagi ilk inson – Odam ato dafn etilgan Golgofa tog‘ida xochga tortganlar. Vafotidan keyin murdasini bir g‘orga qo‘yishadi. Uchinchi kuni dafn etish uchun kelishganlarida Iso Masih jasadi qo‘yilgan joyida yo‘qligini ko‘rishadi. Odamlar Iso payg‘ambarning qayta tirilib, me’rojga ko‘tarilishiga va Yer yuziga qaytib kelishiga ishonganlar.

Iso Masih dafn etilgan Falastindagi Quddus shahri dindorlar uchun muqaddas qadamjolardan biri hisoblanadi.

Iso Masih haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. Masalan, kompozitor Bax «Matto bayon etgan buyuk musibat» asarida Iso Masihning o‘n ikki havoriylaridan biri **Matto**ning Injilida hikoya qilingan Iso uqubatlarini ifodalagan. Rassom Rafael Santining go‘dak Iso va uning onasi Bibi Maryam tasvirlangan «Sikstin madonnasi» asari ham mashhurdir.

-K-

>KALIGULA – Rim imperatori. **Oktavian Avgust**ning vorisi.

Oktavian Avgust vafotidan so‘ng birin-ketin taxtga o‘tirgan Kaligula va **Neron**larning hukmronlik davrida imperiyada inqiroz boshlangan.

>KAMBIZ II (mil. avv. VI asr) – qadimgi Erondagi Ahamoniylar davlatining hukmdori (mil. avv. 530–522-yillar). **Kir II** ning (mil. avv. 558-530-yillar) o‘g‘li va vorisi.

Kambiz II mil. avv. 525-yilda Misrni zabt etgan. Undan keyin hukmronlik **Doro I** ga (mil. avv. 522-yildan 480-yillargacha) o‘tgan.

>KANISHKA – Kushon podsholigi hukmdori.

Kanishka hukmronligi davrida Kushon podsholigi o‘z taraqqiyotining cho‘qqisiga erishgan. Yangi-yangi shaharlar bunyod etilgan, Hindiston, Xitoy va Rim imperiyasi bilan savdo va elchilik munosabatlari yo‘lga qo‘yilgan. Poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston)ga ko‘chirilgan. Hindistonning bir qismi qo‘shib olingan. Shundan so‘ng Kushon davlati hududiga Hindistondan buddaviylik dini kirib kelgan.

>KIAKSAR – Midiya podshosi.

Mil. avv. VII asrda Kiaksar hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylangan. Bobil bilan ittifoq tuzib, mil. avv. 605-yilda Ossuriya podsholigini qulatgan.+

>KIR II (mil. avv. VI asr) – qadimgi Erondagi Ahamoniylar davlatining asoschisi. Mil. avv. 558–530-yillarda hukmronlik qilgan.

Mil. avv. 558-yilda podsho Kir II barcha forslarni o‘z hokimiyati ostida birlashtirdi. Midiya podsholigini bo‘ysundirganidan so‘ng, Kir II ulkan lashkar tuzdi va bosqinchilik yurishlarini davom ettirdi. Armaniston, Lidiya va Bobil zabt etildi. Forslar O‘rtayer dengizi sohiliga chiqdilar, Falastin va Finikiyani bo‘ysundirdilar.

Kir II O‘rta Osiyo hududini bosib olishga harakat qilib ko‘rgan dastlabki fors podshosi bo‘lgan. U Parfiya, Marg‘iyona va Baqtriyani bosib oldi. Mil. avv. 530-yilda ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish qildi. Massagetlar malikasi **To‘maris** bilan bo‘lgan jangda yengilib, halok bo‘lgan. Bu jangni Gerodot «barcha janglardan ham dahshatliroq edi» deya ta’riflangan. Shuningdek, Makedoniyalik Aleksandrning ustozi Aristotel ham Amudaryodan ikki podsho – Kir II va Doro I kechib o‘tgani, ikkalasi ham mag‘lubiyatga uchragani, shu bois u yurishga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishi lozimligini unga uqtirgan edi.

Kir II dan so‘ng uning o‘g‘li **Kambiz II** taxtga chiqqan.

Rivoyatlarga qaraganda, Sirdaryo bo‘yidagi Kurushkat (Kirapolis) shahriga Kir II asos solgan.

>KLEOPATRA (mil. avv. ?–30-yillar) – Misr malikasi (mil. avv. ?–30-yillar).

Kleopatra **Oktavian**ning ittifoqchisi **Mark Antoniy**ga turmushga chiqqach, nikoh sovg‘asi tariqasida Antoniy unga Rimning sharqiy provinsiyalarini hadya etgan. Bu Oktavianning noroziligiga sabab bo‘lgan. Mil. avv. 31-yilda Yunoniston qirg‘oqlarida Antoniy va Oktavian flotlari o‘rtasida jang bo‘ladi. Jang qizigan bir pallada Kleopatra va Antoniy Misrdagi Aleksandriya shahriga qochadilar. Armiya va flot Oktavianga taslim bo‘ladi. Mil. avv. 30-yilda Oktavian qo‘shin bilan Misrga yetib keladi. Antoniy va Kleopatra o‘z-o‘zini o‘ldirishgan.

>KONSTANTIN – Rim imperatori (milodiy IV asr).

313-yilda xristianlik boshqa dinlar bilan tenglashtiruvchi farmon chiqargan. Farmon xristianlarga ibodatxonalar qurish va oshkora ibodat qilish imkonini bergan. Rivoyatga ko‘ra, imperator Konstantin jangda xristianlik ramzini o‘z askarlari qalqonlariga chizishga buyurgan va g‘alabaga erishgan.

Milodiy 330-yilda Bosfor bo‘g‘ozidagi Vizantiy shahrini Rim imperiyasining poytaxti deb e’lon qilgan. Imperatorning buyrug‘i bilan shahardagi barcha eski binolar buzib tashlangan va yangi shahar qurilgan. Shahar uning sharafiga Konstantinopol deb atala boshlangan.

>KSERKS – Erondagi Ahamoniylar davlatining hukmdori (mil. avv. V asr). **Doro I** ning o‘g‘li va vorisi.

Yunon-fors urushlari davom etayotgan pallada mil. avv. 480-yillarda Doro I vafotidan so‘ng taxtga chiqqan. Yunon-fors urushlaridagi «Fermopil» (mil. avv. 480-yil), hal qiluvchi dengiz jangi «Salamin» (mil. avv. 480-yil) hamda yunon-fors urushlaridagi eng yirik «Plateya» (mil. avv. 479-yil) janglari uning davrida sodir bo‘lgan.

Mil. avv. 480-yilda Shimoliy Yunonistonni ishg‘ol etgan. Tog‘lardagi Fermopil darasi Yunoniston shimolidan janubiga olib boradigan birdan bir yo‘l edi. Yunonlar o‘sha joyda pistirma qo‘ygan. Biroq bir sotqin forslarga tog‘lar orqali o‘tgan boshqa yo‘lni ko‘rsatib bergan. Shu tariqa, Fermopil darasida bo‘lib o‘tgan jangda Kserks Sparta podshosi **Leonid** ustidan g‘alaba qozongan. Leonid 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Spartaliklarning barchasi jang maydonida qahramonlarcha halok bo‘lgan. Ushbu voqea tarixga «Uch yuz spartalik jasorati» nomi bilan kirgan. Fermopil jangidan keyin Kserks qo‘shinlari O‘rta Yunonistonga yetib borib, Afinani ishg‘ol qilganlar.

>KUDZULA KADFIZ – yuechjilarning Guyshuan (Kushon) xonadoni boshlig‘i. Kushon podsholigining asoschisi (milodiy I asr).

Milodiy I asrda Kudzula Kadfiz barcha yuechji mulklarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirib, Kushon davlatiga asos solgan. Uning davrida Afg‘oniston va Kashmir Kushon davlatiga qo‘shib olingan. Kudzula Kadfizdan so‘ng Kushon davlati taxtiga **Vima Kadfiz** chiqqan.

>KVINT KURSIY RUF – qadimgi Rim tarixchisi. Milodiy I asrda «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli asarni yozib, makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma’lumotlarni keltirgan.

-L-

>LEONID (mil. avv. ?–480-yillar) – Sparta podshosi (mil. avv. V asr).

Mil. avv. 480-yilda **Kserks** boshchiligidagi forslarning Yunonistonga qilgan yurushi davrida Fermopil darasida forslarga pistirma qo‘ygan. Biroq bir

sotqin forslarga tog‘lar orqali o‘tgan boshqa yo‘lni ko‘rsatib bergan. Bundan xabar topdan Leonid 300 spartalikdan boshqa barcha yunon jangchilariga chekinishni buyurgan. Spartaliklarning barchasi jang maydonida qahramonlarcha halok bo‘ldi. Ushbu voqea «Uch yuz spartalik jasorati», deb tarixda mashhur bo‘lib qolgan. Uning mag‘lubiyatidan keyin Kserks qo‘shinlari O‘rta Yunonistonga yetib borib, Afinani ishg‘ol qilganlar.

>LYU BAN – mil. avv. 206-yilda Xitoydagi Sin sulolasiga qarshi ko‘tarilgan dehqonlar qo‘zg‘oloni rahbari. Xan sulolasi asoschisi.+

Uning qo‘zg‘oloni natijasida Sin davlati tugatilib, Xan sulolasi hukmronligi o‘rnatilgan.

-M-

>MARK ANTONIY (mil. avv. I asr) – Qadimgi Rimning siyosiy arbobi va sarkardasi.

Oktavian bilan birgalikda respublika tarafdori bo‘lgan **Brut** boshchiligidagi kuchlarga qarshi kurash olib borgan. Urushda Mark Antoniy va Oktavian ittifoqi g‘alaba qozongan. Shundan so‘ng Antoniy Rimning Sharqiy qismini, Oktavian esa G‘arbiy qismini boshqarishni o‘z qo‘liga olgan. Misrga kelgan Antoniy Misr malikasi **Kleopatra**ga uylanib, nikoh sovg‘asi tariqasida Kleopatraga Rimning sharqiy provinsiyalarini bergan. Bu Oktavianning noroziligiga sabab bo‘lgan. Mil. avv. 31-yilda Yunoniston qirg‘oqlarida Oktavian qarshi bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchrab, Kleopatra bilan Aleksandriya (Misr) shahriga qochishgan.

Mil. avv. 30-yilda Oktavian qo‘shin bilan Misrga yetib kelgan. Antoniy va Kleopatra o‘z-o‘zini o‘ldirishgan. Misr Rimning provinsiyasiga aylangan.

>MARK KRASS – Rim sarkardasi.

Mil. avv. 71-yil bahorida **Spartak** bilan bo‘lgan jangda uning lashkarini tor-mor etib, qo‘zg‘olonni bostirishga erishgan. Spartak qo‘zg‘oloni bostirilgach, **Pompey** bilan hokimiyat uchun ancha vaqt kurash olib borgan. Ammo Rim davlati olib borayotgan urushlardan birida halok bo‘lgan.

>MENES – Yuqori (Janubiy) Misr podshosi. Qadimgi Misr davlatining ilk fir’avni (mil. avv. 3-mingyillik).

Mil. avv. 3000-yilda Yuqori (Janubiy) Misr bilan Quyi (Shimoliy) Misrni birlashtirib, yagona Misr davlatiga asos solgan. Memfis shahrini bunyod ettirib, uni poytaxt etib tayinlagan.

>MENKAURA – Misr fir’avni. U uchun qurilgan piramida dunyoning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi.

>MILTIAD – Yunon-fors urushlarining Marafon jangida (mil. avv. 490-yil) yunonlarga boshchilik qilgan sarkarda.

Kam qo‘shin bilan **Doro I** boshchiligidagi fors qo‘shinlarini Attikadagi Marafon tekisligida mag‘lubiyatga uchratgan. Forslarning 7 ta kemasini egallab olgan. Ushbu jangdagi g‘alabani Afinaga yetkazish uchun bir jangchi 42 km masofani chopib o‘tgan va «G‘alaba! G‘alaba» deb shu zahotiyoq yuragi yorilib jon bergan.

>MIRON – qadimgi yunon haykaltaroshi. «Diskobol» («Disk uloqtiruvchi») haykalini yasagan.

>MITRIDAT I – Parfiya hukmdori. Hokimiyat tepasiga kelgach, Yunon-Baqtriya davlatiga harbiy tazyiqni kuchaytirib yuborgan.

-N-

>NAVUXODONOSOR II – Yangi Bobil podsholigi hukmdori.

Uning davrida davlat o‘z ravnaqining cho‘qqisiga erishgan. Misrni Yangi Bobil podsholigiga qo‘shib oladi, Iyerusalim (Quddus)ni vayron qilib tashlaydi. Navuxodonosor II turar joy binolari va mudofaa devorlari qurilishida pishgan g‘ishtdan foydalanish to‘g‘risida farmon beradi. Bobilni mustahkam qal’aga aylantiradi.

U hukmronlik qilgan davrda Bobil shahrining sakkizta darvozasi bo‘lgan, ulardan har biri mamlakat bosh xudolaridan birining nomi bilan atalgan. Ayniqsa, iloha Ishtar nomidagi darvoza chiroyli va nafis bo‘lib, afsonaviy hayvonlar tasviri tushirilgan koshin toshtaxtachalar bilan bezatilgan.

>NERON – Rim imperatori. **Kaligula**dan so‘ng taxtga o‘tirgan.

Oktavian Avgust* vafotidan so‘ng birin-ketin taxtga o‘tirgan Kaligula va Neronlarning hukmronlik davrida imperiyada inqiroz boshlangan.

-O-

>ODOAKR (milodiy V asr) – german qabilalarining Rimdagi yollangan qo‘shini sarkardasi. Mil. avv. 476-yilda G‘arbiy Rim imperiyasining so‘nggi imperatori **Romul Avgustul**ni taxtdan ag‘dargan va imperator unvonini Konstantinopolga jo‘natgan.

>ODISSEY – qadimgi yunon mifologiyasi asosida yozilgan Gomerning “Odisseya” dostoni bosh qahramoni. “Iliada” dostonida esa Odisseyning maslahati bilan spartaliklar Troya ustidan g‘alaba qozonishgan edi. “Odisseya” dostonida Odisseyning Troya urushidan keyingi sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi.

>OKSIART – Aleksandr Makedonskiyga qarshi kurash olib borgan so‘g‘d zodagoni.

Spitaman vafotidan so‘ng ham so‘g‘diylar va baqtriyaliklar kurashni davom ettirishgan. Shundan so‘ng Aleksandr Hisor tog‘laridagi qal’alar sohibi bo‘lgan Oksiartning qizi Ravshanakka uylangan. Shu tariqa e’tiborli so‘g‘d zodagonlaridan biri bilan qarindosh tutingan.

>OKTAVIAN AVGUST (mil. avv. I asr) – Rim imperiyasining asoschisi.* **Sezar**ning jiyani.

Mark Antoniy bilan birgalikda **Brut**ga qarshi kurash olib borgan. Brut tor-mor etilgach, Oktavian Rim imperiyasining G‘arbiy qismini, **Mark Antoniy** esa Sharqiy qismini boshqarishni o‘z qo‘liga olgan. Ammo, Antoniyning **Kleopatra**ga uylanib, Rimning sharqiy provinsiyalarini unga sovg‘a qilishi ittifoqning buzilishiga sabab bo‘lgan. Mil. avv. 31-yilda Yunoniston qirg‘oqlarida Mark Antoniy ustidan g‘alaba qozongan. Lekin Antoniy va Kleopatra Aleksandriya (Misr) shahriga qochishga muvaffaq bo‘lgan. Mil. avv. 30-yilda Misrga hujum qilgan. Antoniy va Kleopatra dushmanga asir tushishni istamay o‘z joniga qasd qilishgan. Shu tariqa Oktavian Misrni o‘z provinsiyasiga aylantirgan va Rimning yakka hukmdori bo‘lib qolgan.

Mil. avv. 29-yilda Senatdan imperator unvoni va Avgust laqabini olgan. U Rim imperiyasining asoschisiga aylanib, bir qator islohotlar o‘tkazdi. Imperator keng ko‘lamda qurilish ishlari olib bordi. Uning davrida Rimda ko‘plab saroylar va ibodatxonalar bunyod etildi.

Uning vafotidan so‘ng birin-ketin **Kaligula** taxtga o‘tirgan.

>OSHSHURBANAPAL – Ossuriya hukmdori. Uning davrida poytaxt Nineviya shahrida Old Osiyodagi eng yirik sopol taxtachalardan iborat kutubxona jamlangan.

-P-

>PARIS – qadimgi yunon mifologiyasi asosida yozilgan Gomerning “Iliada” dostoni qahramoni (qarang: Yelena).

>PERIKL (mil. avv. ?–429-yillar) – Afina strategi (mil. avv. 443-429-yillar).

15 marotaba strageg lavozimiga saylangan. Uning hukmronligi davrida Afina eng qudratli davlatga aylangan va demokratiya ravnaq topgan. Bu davr shuning uchun ham «Perikl asri» deb atalgan. Perikl tarixchi **Gerodot**, haykaltarosh **Fidiy** bilan do‘st tutingan edi.

Perikl Xalq majlisidagi lavozimlarga ish haqi to‘lashni joriy qilgan. O‘z hukmronligi davrida Afinada katta qurilish ishlarini amalga oshirilgan. Akropolda qurilgan Parfenon – iloha Afina ibodatxonasining tashabbuskori ham Perikl hisoblanadi.

Periklning faoliyati badavlat shaharliklarga yoqmasdi. U zodagonlarning hamlalarini qaytarib turgan. Uning vafotidan keyin u joriy etgan ko‘pgina qonunlar bekor qilingan.

>PLATON (AFLOTUN) – qadimgi yunon faylasufi.

Suqrotning fikrlari Platon orqali bizgacha yetib kelgan. Mil. avv. IV asrda Afina akademiyasiga asos solgan. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch» asarida «... Platon asos solgan bu ilmiy maskan ming yildan ziyod davr davomida nafaqat yunon, balki butun Sharq-u G‘arb olamining rivojiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, insoniyat taraqqiyotining istiqbolini belgilab beradi. Shu bois ham Platon Sharq ilm-fanida «ustodi avval», ya’ni birinchi muallim degan sharafli nom bilan shuhrat qozonadi» deya uni yuksak e’tirof etgan edi.

>POLIYEN (mil. avv. II asr) – antik davr tarixchisi. Qadimgi saklar rivoyatiga asoslangan Shiroq hikoyasi Poliyen orqali bizgacha yetib kelgan.

>POMPEY – qadimgi Rim sarkaradasi.

Spartak qo‘zg‘oloni (mil. avv. 74–71-yillar) bostirilgach, **Mark Krass** bilan hokimiyat uchun ancha vaqt kurash olib borgan. Mark Krass Rim uchun bo‘lgan urushlarning birida halok bo‘lgach, uning uchun birdan bir raqib **Sezar** bo‘lib qolgan. Ammo, oxir-oqibat bu kurashda Sezarga mag‘lub bo‘lgan.

>PONTIY PILAT – Rim noibi. **Iso Masih**ni o‘limga hukm qilgan.

-R-

>RAVSHANAK (mil. avv. IV asr) – Makedoniyalik Aleksandrning rafiqasi. So‘g‘d zodagoni Oksiartning qizi.

>REM (mil. avv. ?–753-yillar) – Rimning birinchi podshosi **Romul**ning ukasi. Rivoyatga qaraganda, o‘z akasi Romul tomonidan o‘ldirilgan.

>RIXTGOFEN F. – nemis geografi. «Buyuk meridianal yo‘l»ga «Ipak yo‘li» nomini bergan.

>ROMUL (mil. avv. VIII asr) – Rimning birinchi podshosi (mil. avv. 753–?-yillar).

Rivoyatlarga qaraganda, mil. avv. 753-yilda Rim shahriga Romul o‘z inisi **Rem** bilan asos solgan. Dunyoga kelganlaridan so‘ng aka-ukalarni savatga solib, Tibr daryosi bo‘yiga tashlab ketadilar. Daryo bo‘yida ularni Ona bo‘ri topib olib, emizadi va boqadi. Keyin aka-ukalarni bir cho‘pon topib olib tarbiyalaydi. Voyaga yetganlarida esa ular Tibr bo‘yida shahar barpo etishga ahd qilishadi. Aka-ukalar janjallashib qolib, Romul o‘z inisini o‘ldirib qo‘yadi,

shaharga esa o‘z nomini beradi. Bugungi kunda, afsonada aytilganidek, egizaklarni emizgan Ona bo‘ri Rimning timsoli hisoblanadi.

>ROMUL AVGUSTUL – G‘arbiy Rim imperiyasining so‘nggi imperatori (mil. avv. ?–476-yillar). Milodiy 476-yilda german qabilalarining Rimdagi yollangan qo‘shini sarkardasi **Odoakr** tomonidan taxtdan ag‘darilgan.

-S-

>SALAVK – Salavkiylar davlati asoschisi (mil. avv. 312–280-yillar).

Kichik Makedoniyalik Aleksandrning lashkarboshilaridan biri bo‘lgan. Mil. avv. 312-yilda Bobil (Suriya)da hokimiyatni o‘z qo‘liga olib, yangi davlatga asos solgan. Salavk davlatining tarkibiga Mesopotamiya, Eron, Parfiya, Baqtriya, So‘g‘diyona, Marg‘iyona kirgan.

Salavk o‘z davlati tarkibiga kirgan O‘rta Osiyoni alohida viloyatlar – satrapliklarga ajratdi. O‘g‘li **Antiox**ni Sharqiy viloyatlar – Parfiya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyonaga noib etib tayinlagan. Uning vafotidan so‘ng mil. avv. 280-yilda Antiox taxtga o‘tirgan.

>SARGON I – Mesopotamiyadagi Shumer-Akkat shohi.

Mil. avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarmida Akkad va Shumer shaharlarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan. Qo‘shni mamlakatlarni zabt etib, «to‘rt iqlim mamlakatlari podshosi» unvonini olgan. Savdo-sotiqni rivojlantirish maqsadida Sargon I barcha shaharlar uchun yagona bo‘lgan uzunlik, maydon va og‘irlik o‘lchovini joriy etgan. U jahon tarixida birinchi bo‘lib muntazam qo‘shin tuzgan. Bu lashkar 5400 nafar jangchidan iborat bo‘lgan, keyinchalik esa ular Sargon I ga ko‘plab shaharlar va qo‘shni mamlakatlarni zabt etishga imkoniyat yaratgan katta qo‘shinning asosiy kuchiga aylangan.

Sargon I vafotidan keyin uning taxtiga o‘tirgan vorislariga mamlakatda alanga olib turgan qo‘zg‘olonlarni bostirishga to‘g‘ri kelgan. Mil. avv. 2-mingyillikning boshlarida Shumer-Akkad davlati ko‘chmanchi qabilalar zarbasidan parchalanib ketgan.

>SIDDHARTHA GAUTAMA, ikkinchi ismi BUDDA («Ma’rifatlangan» tarzida tarjima qilinadi) – Buddaviylik dini asoschisi.

Mil. avv. VI asrda buddizm dini yaratilishi shahzoda Siddhartha Gautama nomi bilan bog‘liq. Rivoyatda naql qilinishicha, shahzoda Siddhartha Gautama 20 yoshga to‘lguniga qadar hukmdor otasi saroyida betashvish kun kechirgan. U kunlardan bir kuni sayr qilib yurgan paytda munkillagan, bedavo dardga yo‘liqqan bir kishiga, keyin esa dafn marosimiga ko‘zi tushadi. Shunday qilib shahzodaga insonning azobi va ajali ma’lum bo‘ldi. Bu Siddhartha Gautama hayotini tamomila o‘zgartirib yubordi. U saroydagi farog‘atli turmushdan voz kechdi, hayot mazmunini izlab topish maqsadida dunyo bo‘ylab sayohatga otlandi. Bir kuni ma’rifatga erishgan Budda inson son-sanoqsiz marotaba

tug‘ilishi va vafot etishini tushunib yetadi. Keyingi hayotda odamning kim bo‘lib tug‘ilishi ham uning sa’y-harakatlari va amallariga bog‘liq bo‘ladi, degan xulosaga keladi.

Avvaliga buddaviylarda xudo bo‘lmagan, chunki ular xudolar inson azob-uqubatlarini yengillashtira olmaydi, deb hisoblaganlar. Biroq ko‘p o‘tmay, Buddaning o‘zi xudoga aylanadi. Budda nilufar gulida teran o‘ylarga cho‘mgancha qilt etmay, ko‘zlarini yumib, chordona qurib o‘tirgan holatda tasvirlanadi.

>SIN SHIXUANDI (mil. avv. III asr) – Xitoydagi Sin davlati asoschisi.

Ikki yuz yildan buyon davom etib kelayotgan «Kurashayotgan podsholiklar» davriga barham berib, mil. avv. 246-yilda Xitoyni o‘z hokimiyati ostida birlashtirgan va Sin Shixuandi (manosi: Sinning birinchi hukmdori) nomini qabul qilgan. O‘z davlati hududini 36 viloyatga taqsimlagan. Hali tirikligidayoq o‘ziga atab maqbara qurishga farmon bergan. Maqbarani 720 ming odam 37 yil mobaynida bunyod etgan. Sin Shixuandi qabridan hukmdorni «qo‘riqlash» uchun o‘rnatilgan 6 mingta sopol askarlar haykallari topilgan.

U o‘z davlatini ko‘chmanchi xunnlarning hujumlaridan himoya qilish uchun Shimoliy Xitoy bo‘ylab qurilgan mudofaa devorini yanada mustahkamlashni buyurgan.

>SIM SYAN – Qadimgi Xitoy tarixchisi (rasm, 75-sahifa).

>SKUNXA – mil. avv. 519-yilda **Doro I** saka-tigraxaudalar ustiga yurish qilganida unga qarshi chiqqan saklar yo‘lboshchisi. Bu haqida Behistun qoyatoshlarida ma’lumotlar berilgan.

>SOFOKL – Qadimgi yunon shoiri. Tragediyalari bilan mashhur bo‘lgan.

>SOKRAT (SUQROT) – qadimgi yunon faylasuf-olimi. Afina shahridan bo‘lgan.

O‘zining dono hikmatlari tufayli shaharning eng aqlli kishisi deb e’lon qilingan edi. Bunga javoban Suqrot shunday degan ekan: «Hech narsani bilmasligimni bilganim uchun ham meni donishmand deb hisoblashsa kerak». Suqrot o‘z fikrlarini og‘zaki bayon qilgan. Uning g‘oyalari **Platon (Aflotun)** orqali bizga yetib kelgan.

Delfiya ibodatxonasidagi bitik uning sevimli hikmati bo‘lgan: «O‘z-o‘zingni angla!».

Suqrot, ayniqsa, ochko‘zlik va molparastlik singari nuqsonlarni qattiq tanqid qilgan. Bozor bo‘ylab sayr qilib yurganida shunday degan ekan: «Shuncha narsadan bemalol voz kechib ham yashash mumkinligi naqadar ajoyib!».

Suqrot Afinadagi ba’zi tartiblarni qo‘rqmasdan tanqid qilgani uchun o‘limga mahkum etilgan. Olimning boshqa bir davlatga qochib ketish

imkoniyati bo‘lsa-da, uni rad etgan. Suqrot tarixda odamgarchilik, sabr-matonat va jasurlik timsoli bo‘lib qolgan.

>SOLON – Afina hukmdori (mil. avv. VI asr).

Solon xalqqa yon berishning qattiq tarafdori bo‘lgan. Mil. avv. 594-yilda u davlatni idora qilishning oldingi tizimini o‘zgartiradi. 1) Avvalgi boshqaruv tizimi – aristokratiyani demokratiyaga almashtirdi. 2) Davlatni boshqarishda faqat erkak fuqarolar ishtirok eta olardi. 3) Ayollar va chet elliklar (meteklar) qabul qilinayotgan qonunlar muhokamasida va ovoz berishda ishtirok eta olmasdilar. 4) Solonning taklifi bilan dehqonlarning qarzlari va qarzdorlarni qul qilish bekor qilinadi. 5) Xalq majlisi faoliyati tiklandi va 6) nasl-nasabidan qat’iy nazar afi naliklar uchun ham davlat mansablarini egallash imkoniyatini paydo bo‘ldi.

>SPARTAK (?–mil. avv. 71-yillar) – qadimgi Rimda ko‘tarilgan qullarning yirik qo‘zg‘oloni (mil. avv. 74-71-yillar) rahbari. Frakiyalik bo‘lgan.

Rim armiyasida xizmat qilishdan bosh tortganligi uchun Kapuya shahridagi gladiatorlik maktabiga sotib yuborilgan. U qullar bilan birgalikda qo‘zg‘olon ko‘tarishga urinib ko‘rgan. Ammo kimdir bu haqda rimliklarga xabar yetkazadi. Shunda Spartak va uning 200 ga yaqin tarafdorlari qorovullarga hujum qiladilar va qochib chiqib ketadilar. Ular Vezuviy tog‘idagi qoyaga chiqib oladilar. Ularning safi kengayib 10 ming nafarga yetadi. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullarni tor-mor etishga jo‘natilgan uch ming kishilik qo‘shin Vezuviy tog‘lari yaqinida harbiy lager tikladi.

Qamal boshlandi. Spartak boshchiligidagi qullar uzum novdalaridan narvon to‘qib, ko‘rinmaydigan tarafdan cho‘qqidan pastga tushib oldilar. Rimliklar guruhining orqasidan zarba bergan Spartak ularni tor-mor etdi. Ammo ko‘p o‘tmay qo‘zg‘olon ko‘targanlar orasida ixtilof paydo bo‘ldi. Qullarning bir qismi Rimni tark etib, o‘z yurtlariga qaytishni afzal bildilar. Ko‘pgina qullar esa mamlakatdan chiqib ketmaslikka, Rimni tor-mor etishga va quldorlardan qasos olishga ahd qilishdi.

Spartakka qarshi tajribali sarkarda **Mark Krass** boshchiligida ko‘p ming sonli qo‘shin jo‘natildi. Mil. avv. 71-yilning bahorida ro‘y bergan hal qiluvchi jangda Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o‘zi esa ana shu jangda halok bo‘ldi. 6 mingdan ziyod asirlar Rim-Kapuya oralig‘idagi yo‘l bo‘ylaridagi xochlarga mixlab tashlandi.

>SPITAMAN (mil. avv. ?–328-yillar) – mil. avv. 329-328-yillarda Sug‘diyonada vatan ozodligi yo‘lida Aleksandrga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘oloni rahbari.

Spitaman yunon-makeon qo‘shinlari tomonidan egallangan Maraqondani qamal qiladi. **Aleksandr** qamalda qolganlarga yuborgan 3 ming kishilik qo‘shinni Politimet (Zarafshon) daryosi bo‘yida pistirma qo‘yib mag‘lub etadi. Shunda Aleksandrning o‘zi qo‘zg‘olonni bostirishga otlanadi. Yunonlarning

katta kuchlari yaqinlashib kelayotganidan xabar topgan Spitaman qamalni to‘xtatadi va o‘z qo‘shinlarini sahro sari boshlab ketadi.

Mil. avv. 328-yil kuzida Spitamanning Aleksandr bilan hal qiluvchi jangi bo‘lib o‘tadi. Kuchlar teng bo‘lmaganidan Spitaman yengilib, cho‘lga chekinadi. O‘sha yerda u xoinlarcha o‘ldiriladi.

>SSIPION – qadimgi Rim sarkardasi. Ikkinchi Puni urushida Karfagen qo‘mondoni **Gannibal** qo‘shinini mil. avv. 202-yilda Zama shahri yaqinida (Shimoliy Afrika) mag‘lubiyatga uchratgan. Shu tariqa ikkinchi Puni urushi ham rimliklar g‘alabasi bilan yakunlangan.

>STRABON (mil. avv. I asr) – qadimgi yunon tarixchisi va geografi. Mil. avv. I asr oxirlarida «Geografiya» nomli asar yozgan. Unda O‘rta Osiyo xalqlari madaniyati haqida ma’lumotlar keltiradi.

-T-

>TARKVINIY – qadimgi Rimning so‘nggi podshosi (mil. avv. ?– 509-yillar). Laqabi «Mag‘rur».

Tarkviniy saylab qo‘yilgan hukmdorni o‘ldirib, hokimiyatni egallab olgan. Bundan darg‘azab bo‘lgan aholi qo‘zg‘olon ko‘tarib, Tarkviniyni shahardan haydab yuborgan.

Shundan so‘ng shahar ahli butun hokimiyat bir kishi qo‘lida jamlanishiga yo‘l qo‘ymaydigan boshqaruv shakliga o‘tishga qaror qilgan. Podsho hokimiyatining ag‘darilishi Rim respublikasi asosini yaratgan.

>TIT LIVIY – qadimgi Rim tarixchisi. «Rim tarixi» asarini yozgan.

>TO‘MARIS (mil. avv. VI asr) – massagetlar malikasi. Mil. avv. 530-yilda ahamoniylar hukmdori Kir II ni mag‘lub etgan.

Gerodot Ahamoniylar hukmdori **Kir II** qo‘shinlari va To‘maris boshchiligidagi massagetlar jangini «Bu jang… barcha janglardan ham dahshatliroq edi» deya ta’riflangan.

>TRAYAN – Rim imperatori (milodiy 98–?-yillar).

Trayan zamonida Dunay daryosi bo‘ylarida yashovchi 1) daklar bilan urushlar olib borildi. Balandligi 40 metrga teng 2) Trayan ustuni sirtidagi tasvirlar daklar bilan urush manzaralari haqida hikoya qiladi. 3) Suriya va Mesopotamiya hududlari Rim imperiyasi tarkibiga kirdi.

>TUTANXAMON – Misr fir’avni.

Yangi podsholik davriga kelib mirsliklar piramida qurmay qo‘yishgan. Fir’avnlarni tog‘larga o‘yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo‘lishgan. Eng

mashhur maqbara fir’avn Tutanxamonga tegishli bo‘lgan. Maqbaradan temirdan yasalgan zeb-ziynat buyumlari topilgan.

>TUTMOS II – Misrning Yangi podsholik davri fir’avni. O‘z hukmronligi davrida Falasin, Finikiya, Suriyani istilo qilishni boshlagan.

>TUTMOS III – Misrning Yangi podsholik davri fir’avni. Uning hukmronligi davrida Old Osiyoda misrliklar hukmronligi o‘rnatilgan.

-U-

>U-DI – Xitoydagi Xan davlati hukmdori.

Uning hukmronligi davrida Xitoy eng qudratli davlatga aylangan. Elchi **Chjan-Syan**ni ko‘chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo‘natgan. U o‘z saroyida Chjan-Syan Farg‘onadan olib kelgan beda urug‘ini ektirgan. Keyinchalik beda Xitoyning butun shimoli bo‘ylab ekiladigan bo‘lgan.

-V-

>VIMA KADFIZ – Kushon davlati hukmdori. **Kudzula Kadfiz**ning vorisi. Vima Kadfiz o‘z davrida pul islohoti o‘tkazgan. Hukmdor nomi ko‘rsatilgan tanga zarb qildirgan, zarb qilingan tangalar qadri ortgan. Tangalar oltin, kumush va misdan zarb qilingan. Mamlakat hududi yanada kengaygan.

-X-

>XAFRA – Misr fir’avni. U uchun qurilgan piramida dunyoning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi.

>XAMMURAPI – Bobil podshosi (mil. avv. 1792–1750-yillar). Mil. avv. XVIII asrda butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirgan. Xammurapi hukmronligi davrida Bobil eng qudratli davlatga aylangan.

Xammurapi tarixda qonunlar tuzgan birinchi hukmdor sifatida nom qoldirgan. Uning qonunlari ilgari mavjud bo‘lgan barcha qonunlardan ustunlik qilgan. Xammurapi qonunlari hamma uchun – badavlat va qashshoq kishilar uchun birdek bo‘lgan. Qonunlarning matnlari mamlakatning barcha shaharlarida o‘rnatilgan tosh ustunlarga yozib qo‘yilardi. Xammurapi qonunlari qat’iyligi bilan kishini lol qoldiradi. Xususan, shifokor amalga oshirgan jarrohlik muolajasi natijasida bemor bevaqt vafot etsa, shifokorning qo‘llari kesib tashlanishi shart bo‘lgan. Binokor qurgan uy to‘satdan qulab, biror kishini bosib qolsa, binokor qatl etilishi qayd qilingan. Yong‘in mahalida o‘g‘rilik ustida qo‘lga tushgan kimsa o‘sha zahoti olovga otilgan. Qulfbuzar o‘g‘ri ham qattiq jazoga mahkum etilgan.

Xammurapi qonunlari nomigagina podshoning qarori bo‘lmasdan, xudolar xohishirodasi sifatida talqin etilgan. Shuning uchun ham ularni so‘zsiz, og‘ishmasdan bajarish talab qilinardi. Xammurapi qonunlari talon-taroj va o‘g‘rilik kabi jinoyatlarni to‘xtatishda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xammurapi vafotidan keyin tog‘lik kassitlar qabilalari shaharni bosib olgan.

>XORIYEN – Aleksandr Makedonskiyga qarshi kurash olib borgan so‘g‘d zodagoni. Aleksandr uning Hisor tog‘ida joylashgan qal’asini egallashga muvaffaq bo‘lgan.

>XUFU (XEOPS) – Misr fir’avni. Yunonlar uni Xeops deb atashgan.

Mil. avv. 2600-yil atrofida uning uchun Memfis shahri yaqinida balandligi 147 metr bo‘lgan piramida bunyod etilgan. Xufu piramidasi dunyoning yetti mo‘jizasidan biri hisoblanadi.

-Y-

>YAXMOS – Misrdagi Yangi podsholik davri asoschisi. Fiva «nom»ining fir’avni bo‘lgan Yaxmos giksoslarga qarshi kurash olib borib, ularni Misrdan haydab chiqargan.

>YEVTIDEM – Yunon-Baqtriya davlati hukmdori. **Diodot**dan so‘ng taxtga o‘tirgan. Yevtidem davlat tarixida sezilarli iz qoldirmagan. Uning vafotidan so‘ng o‘g‘li **Demetriy** taxtga chiqqan.

>YELENA (SOHIBJAMOL YELENA) – qadimgi yunon mifologiyasi asosida yozilgan Gomerning “Iliada” dostoni qahramoni.

Unga ko‘ra, Sparta podshosining rafiqasi bo‘lgan Sohibjamol Yelenani Troya podshosining o‘g‘li **Paris** o‘g‘irlab ketadi. Voqeadan xabar topgan Sparta podshosi Parisdan qasos olishga ahd qiladi va barcha yunonlarni Troya bilan urushga chaqiradi. Yunonlar to‘qqiz yil Troyani behuda qamal qiladilar. Urushning oxirgi, o‘ninchi yilida **Odisseyning** maslahati bilan yunonlar ichi bo‘m-bo‘sh ulkan yog‘och ot yasashadi. Ana shu yog‘och ot ichiga yunon qo‘shinlarining bir qismi yashiringan, qo‘shinning boshqa bir qismi esa yaqindagi orollardan biriga o‘rnashib olgan edi. Troyaliklar yunonlar qamal qilishni to‘xtatishdi va Troya homiysi Afina Palladaga xush kelishi uchun bizga ot sovg‘a qilibdi, degan xulosaga kelib, yo‘g‘och otni shaharga olib kiradilar. Kechasi otning ichidan chiqqan jangchilar darvozalarni ochadilar va Troya bosib olinadi. Hozirgi tillarda «Troya oti» iborasi xosiyatsiz sovg‘a-salom ma’nosini anglatadi.

>YULIY SEZAR (mil. avv. ?–44-yillar) – Rim diktatori (mil. avv. 49–44-yillar), sarkarda.

Yuliy Sezar mil. avv. 49-yilda Galliyadagi zafarli urushdan keyin Rimga qaytayotganida Rubikon daryosidan kechib o‘tar ekan, yakka hokimlik uchun oshkora kurashni boshlab yubordi. Sezar o‘shanda o‘zining mashhur: «Qur’a tashlandi!» iborasini aytadi. Rim aholisining qo‘llab-quvatlashi hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Uning asosiy raqibi **Pompey**ning qo‘shinlari Ispaniyada edi. Sezar g‘alaba qozondi. U Rim imperatori va diktatori – cheklanmagan hokimiyatga ega hukmdoriga aylandi. Mil. avv. 49–48-yillarda tanga zarb qildirgan.

Sezarning cheklanmagan hokimiyatidan norozi bo‘lgan senatorlar fitna uyushtirdilar. Ular Sezarni o‘ldirishga va Senatning burungi mavqeyini qaytarishga ahd qildilar. Fitnaga Sezarning yaqin do‘sti **Brut** boshchilik qildi. Senatdagi majlis paytida fitnachilar Sezarni o‘ldirdilar. Mil. avv. 44-yilda Yuliy Sezar hukmronligi tugadi. Sezarning o‘limi respublikaning tiklanishiga olib kelmadi. Uning jiyani **Oktavian** Mark Antoniy bilan ittifoq tuzib, Brutni tor-mor etishgan.

Sezar mahoratli sarkarda bo‘lishdan tashqari yozuvchi ham bo‘lgan. Uning «Galliya urushi haqida xotiralar» asarida qadimgi germanlar haqida muhim tarixiy ma’lumotlar bor.

-Z-

>ZARDUSHT (mil. avv. 1-mingyillikning birinchi yarmi) – Zardushtiylik dinining asoschisi.

30 yoshida yangi diniy ta’limotning payg‘ambariga aylangan. Avvalo, Zardusht turli qabilalarni istilochilarga qarshi kurashish uchun da’vat etgan. Zardushtning ismi turli tillarda Zaratushtra, Zoroastr deya aytilgan. Keyinroq Yunonistonda Zardushtning ismi «Zoroastr» shaklida jaranglaydi (yunoncha «astron» – «yulduz»), negaki Yunonistonda uni birinchi galda donishmand, munajjim sifatida bilishgan.

-SH-

>SHIROQ – saklar rivoyatiga ko‘ra, mil. avv. 519-yilda **Doro I** saka-tigraxaudalar ustiga yurish qilganida ularga qarshi chiqqan jasur cho‘pon.

Poliyenning hikoyasida aytilishicha, u fors qo‘shinlarini o‘zidan boshqa hech kim bilmaydigan so‘qmoq bilan saklarning orqa tomoniga boshlab borishiga ishontirib, ularni cho‘la-biyobon bo‘ylab suvsiz yetti kun yo‘l bostiradi. Shu tariqa Doro I ning saklar ustiga yurishi muvaffaqsiz tugaydi.

>SHAMPOLYON J.F. – fransuz olimi. 1822-yilda misr iyerogliflarini tarjima qilgan.

-CH-

>CHANDRAGUPTA – Hindistondagi Maurya davlati asoschisi (mil. avv. IV asr). **Makedoniyalik Aleksandr** qo‘shinlarini Hindistondan quvib chiqargach, Shimoliy Hindistonni birlashtirib, poytaxti Pataliputra bo‘lgan Maurya davlatiga asos solgan.

>CHJAN-SYAN (mil. avv. II asr) – qadimgi Xitoy diplomati.

Xitoy imperatori **U-Di** uni ko‘chmanchi xunn qabilalariga qarshi kurashda ittifoqchi va hamkorlar topish uchun jo‘natadi. Chjan-Syan xunnlar qo‘liga asir tushadi va o‘n yilcha hibsda bo‘ladi. U asirlikdan qochib Farg‘ona vodiysiga keladi. U yerda biroz muddat bo‘lgach, Oloy vodiysidan o‘tib vataniga qaytadi. Chjan-Syan Xitoyga Farg‘ona otlaridan birini va beda urug‘idan olib boradi. Bu otni xitoyliklar «samoviy» deb ataganlar. Imperator U-Di o‘z saroyi yaqinida elchisi olib kelgan bedani ektiradi. Keyinchalik u Xitoyning butun shimoli bo‘ylab ekiladigan bo‘ladi.

Chjan Syan yurgan yo‘l bo‘ylab Xitoy mamlakatini Markaziy va G‘arbiy Osiyo bilan bog‘lovchi jahon ahamiyatiga ega «Buyuk Ipak yo‘li» deb ataluvchi karvon yo‘li o‘tadigan bo‘ldi.

Menes	mil. avv. 3-mingyillik	**Antiox**	mil. avv. III asr
Sargon I	mil. avv. 3-mingyillik	**Ashoka**	mil. avv. III asr
Xufu (Xeops)	mil. avv. 3-mingyillik	**Diodot**	mil. avv. III asr
Zardusht	mil. avv. 1-m.y. 1-yarmi	**Bess**	mil. avv. III asr
Xammurapi	mil. avv. XVIII asr	**Gannibal**	mil. avv. III asr
Romul	mil. avv. VIII asr	**Lyu Ban**	mil. avv. III asr
Rem	mil. avv. VIII asr	**Sin Shixuandi**	mil. avv. III asr
Drakont	mil. avv. VII asr	**Ssipion**	mil. avv. III asr
Kiaksar	mil. avv. VII asr	**Poliyen**	mil. avv. II asr
Siddhartha Gautama	mil. avv. VI asr	**U-Di**	mil. avv. II asr
Kir II	mil. avv. VI asr	**Chjan-Syan**	mil. avv. II asr
To‘maris II	mil. avv. VI asr	**Yuliy Sezar**	mil. avv. I asr
Kambiz II	mil. avv. VI asr	**Brut**	mil. avv. I asr
Doro I	mil. avv. VI asr	**Oktavian Avgust**	mil. avv. I asr
Skunxa	mil. avv. VI asr	**Mark Antoniy**	mil. avv. I asr
Solon	mil. avv. VI asr	**Kleopatra**	mil. avv. I asr
Tarkviniy	mil. avv. VI asr	**Mark Krass**	mil. avv. I asr
Doro I	mil. avv. V asr	**Pompey**	mil. avv. I asr
Shiroq	mil. avv. V asr	**Spartak**	mil. avv. I asr
Kserks	mil. avv. V asr	**Strabon**	mil. avv. I asr
Leonid	mil. avv. V asr	**Iso Masih**	milodiy I asr
Miltiad	mil. avv. V asr	**Kudzula Kadfiz**	milodiy I asr
Perikl	mil. avv. V asr	**Kvint Kursiy Ruf**	milodiy I asr
Fidiy	mil. avv. V asr	**Pontiy Pilat**	milodiy I asr
Gerodot	mil. avv. V asr	**Trayan**	milodiy I asr
Filipp II	mil. avv. IV asr	**Trayan***	milodiy II asr
Aleksandr Makedonskiy	mil. avv. IV asr	**Arrian**	milodiy II asr
Ravshanak	mil. avv. IV asr	**Feodosiy**	milodiy IV asr
Kichik Aleksandr	mil. avv. IV asr	**Konstantin**	milodiy IV asr
Xoriyen	mil. avv. IV asr	**Attila**	milodiy V asr
Oksiart	Mil. avv. IV asr	**Romul Avgustul**	milodiy V asr
Doro III	mil. avv. IV asr	**Odoakr**	milodiy V asr
Spitaman	mil. avv. IV asr		
Chandragupta	mil. avv. IV asr		
Aristotel	mil. avv. IV asr		
Diogen	mil. avv. IV asr		
Salavk	mil. avv. IV asr		
Platon (Aflotun)	mil. avv. IV asr		
Demosfen	mil. avv. IV asr		

Ushbu jadvalda tarixiy shaxslarning darslik bo‘yicha qaysi davr ma’lumotlarida uchrashi aks etgan

Davrlar	Hukmdorlar	Boshqa shaxslar
mil. avv. 3-mingyillik	Menes, Sargon I, Xufu (Xeops)	
mil. avv. XVIII asr	Xammurapi	
mil. avv. VIII asr	Romul	Rem
mil. avv. VII asr	Drakont, Kiaksar	
mil. avv. VI asr	Kir II, To‘maris, Kambiz II, Doro I, Skunxa, Solon, Tarkviniy	Frada, Siddhartha Gautama
mil. avv. V asr	Doro I, Kserks, Leonid, Perikl	Gerodot, Miltiad, Fidiy, Shiroq
mil. avv. IV asr	Filipp II, Makedoniyalik Aleksandr, Kichik Aleksandr, Doro III, Bess, Salavk, Chandragupta	Aristotel, Demosfen, Diogen, Platon (Aflotun), Spitaman, Oksiart, Xoriyen, Ravshanak
mil. avv. III asr	Salavk,* Antiox, Ashoka, Sin Shixuandi, Lyu Ban, Diodot	Gannibal, Ssipion
mil. avv. II asr	U-Di	Chjan-Syan, Poliyen
mil. avv. I asr	Yuliy Sezar, Oktavian, Mark Antoniy, Kleopatra	Brut, Mark Krass, Spartak, Pompey, Strabon
milodiy I asr	Kudzula Kadfiz, Trayan	Iso Masih, Pontiy Pilat, Kvint Kursiy Ruf
milodiy II asr	Trayan*	Arrian
milodiy III asr	-	-
milodiy IV asr	Feodosiy, Konstantin	
milodiy V asr	Attila, Romul Avgustul	Odoakr, Alarix

Eslatma: jadvaldagi tarixiy shaxslarning ba’zilari aynan shu asrda yashamagan. Jadvalni tuzishda, asosan, darslik bo‘yicha tarixiy shaxsning qaysi davrda uchraganligi inobatga olingan.

Davlat yoki sulola asoschilari: Romul, Salavk, Diodot, Kir II, Kudzula Kadfiz, Lyu Ban*

Hukmdorlar ketma-ketligi
Makedoniya: … → Filipp IV (otasi) → Aleksandr Makedonskiy → Kichik Aleksandr (o‘g‘li)
Salavkiylar: Salavk → Antiox (o‘g‘li)
Yunon-Baqtriya: Diodot → Yevtidem → Demetriy (o‘g‘li)
Ahamoniylar: Kir II → Kambiz II (o‘g‘li) → Doro I → Kserks (o‘g‘li) → … → Doro III
Rim: Romul → … Tarkviniy [podsholik tugadi]. … → Yuliy Sezar … → Oktavian Avgust → Kaligula [o‘g‘li] → Neron [o‘gay o‘g‘li] → … → Konstantin → … → → … → Feodosiy [Rim ikkiga ajraldi]. **G‘arbiy Rim:** … → Romul Avgustul
Kushon: Kudzula Kadfiz → Vima Kadfiz (o‘g‘li) → … → Kanishka

ASRLAR

Paleolit

ilk paleolitning oxirlari

Buyuk muzlik davri boshlandi.

o‘rta paleolit

dastlabki diniy e’tiqodlar shakllandi.

so‘nggi paleolit (9)

1) kesuvchi, arralovchi mehnat qurollari yasala boshlandi.
2) taqinchoqlar – munchoqlar, tumorlar, uzuklar yasala boshlandi.
3) kromonyon odam turi yashagan.
4) urug‘ jamoalari vujudga keldi.
5) qabila vujudga keldi.
6) dastlabki turar joylar qurildi.
7) kiyim-kechak tayyorlashda hayvonlarning terisidan foydalanila boshlandi.
8) sun’iy olov hosil qilindi.
9) ilk rasmlar paydo bo‘ldi (qoyatosh rasmlari).

Mezolit (6)

1) boshlari – muzlik davri tugadi.
2) oxirida – inson hayvonlarni qo‘lga o‘rgata boshladi.
3) oxirida – Old Osiyoda xo‘jalikning yangi tarmoqlari, ya’ni ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik vujudga keldi.
4) ➥o‘q-yoy kashf qilindi;
➞ chopqir hayvonlar va qushlarni ovlash imkoniyati vujudga keldi.
5) odamlar hayvonlarni o‘ldirmasdan yegulik zaxirasi sifatida, yegulik zaxirasi sifatida saqlab qo‘yadigan bo‘ldilar (bu itning qo‘lga o‘rgatilishi bilan bog‘liq).
6) mikrolitlar yaratildi.

Neolit (8)

1) sopol idishlar yasash kashf etildi.
2) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik – dehqonchilik va chorvachilik vujudga keldi (eng katta ixtiro).
3) kulolchilik va to‘quvchilik vujudga keldi.
4) toshga ishlov berishning silliqlash va parmalash usullari kashf qilindi.
5) o‘troq turmush tarziga o‘tildi.
6) doimiy turar joylar qurila boshlandi.
7) paxsadan uylar qurila boshlandi.
8) oxirida – mis kashf qilindi.

Eneolit (5)

1) Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga kela boshladi.
2) O‘rta Osiyo janubida suniy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik vujudga keldi.
3) xom g‘ishtdan ko‘p xonali uylar qurildi.
4) idishlarni pishirish uchun kulolchilik xumdonlaridan foydalanila boshlandi.
5) sopol idishlar bezatila boshlandi.

Bronza (4)

1) odamlar ixtiyorida ortiqcha miqdorda qishloq xo‘jalik mahsulotlari vujudga keldi.
2) chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqdi.
3) patriarxat davri boshlandi.
4) ➥kulolchilik charxi va g‘ildirak kashf etildi;
➞ dastlabki aravalar vujudga keldi.

Mil.avv.XVIII asr (4)

1) Hind daryosi vodiysi shaharlari tez-tez ro‘y beruvchi toshqinlar, o‘rmonlar va changalzorlar kengayishi natijasida zavolga yuz tutib butunlay vayronaga aylangan.
2) Kichik Osiyo markazida Xettlar degan shimollik xalq o‘z davlatlariga asos soldi
3) Bobil podshosi Xammurapi butun Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirdi.
4) **oxiri –** ko‘chmanchi giksoslar Misrga hujum qildi.

Mil.avv.XVII asr

Bronzadan yasalgan to‘g‘nogich va tosh munchoqlar.

Mil.avv.XIV-XIII asrlar

Temirdan birinchi bo‘lib Xettlar foydalanganlar.

Mil.avv.XII asr (2)

1) Bronzadan yasalgan bilakuzuk.
2) ➥ Janubiy Yunoniston (Lakonika) hududiga doriylar qabilasi bostirib kirdi.
➞ Ular Sparta shahar-davlatiga asos soldi.

Mil.avv.XI asr

Falastin hududida Isroil davlati vujudga kelgan.

Mil.avv.X asr

Finikiyada 22 undosh harfdan iborat bo‘lgan alifbo yaratildi

Mil.avv.IX-VIII asrlar (3)

1) **boshlari** – Urartu davlati gullab yashnadi.
2) O‘rta Osiyodan topilgan temirdan yasalgan ilk mehnat qurollari shu davrga tegishli.
3) “Avesto”ning ilk qismi paydo bo‘lgan.

Mil.avv.VIII asrda (2)

1) etrusklar Italiyada 12 ta shahar-davlatning ittifoqini tuzishdi.

2) Yunonistonda 24 harfdan iborat Finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi.

Mil.avv.VIII-VII asrlar (2)

1) Chjou davlatining markaziy hokimiyati zaiflasha boshladi
2) Afrosiyob shahriga asos solindi.

Mil.avv.VIII-VI asrlar

➦ “Buyuk yunon koloniyalashtirilishi” davri. Yunon koloniyalari vujudga keldi;
➞ Qora dengiz bo‘ylarida Olviya, Xersones, Pantikapey koloniyalari vujudga keldi;
➞ Italiya sohillarida yunon koloniyalari vujudga keldi.

Mil.avv.VII asr (5)

1) Yani Bobil podsholigi vujudga keldi.
2) ➦ Misr yana yagona davlatga birlashdi;
➞ Misr iqtisodiyoti va madaniyatida yuksalish sodir bo‘ldi.
3) Kiaksar hukmronligi davrida Midiya qudratli davlatga aylandi.
4) Qadimgi Baqtriya davlati tashkil topgan
5) ➦ Ko‘zaliqir shahri qurildi;
➞ Qadimgi Xorazmda shaharsozlik boshlandi.

Mil.avv.VII-VI asrlar (4)

1) Hindistonda bir nechta davlatlar: Magadha, Koshala, Malla vujudga keldi.
2) temir pichoq (rasm)
3) O‘zbekiston hamda qo‘shni hududlarda so‘g‘diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar hamda sak va massaget qabilalari yashaganlar.
4) O‘lkamizda hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi natijasida qadimgi shaharlar rivojlangan.

Mil.avv.VII–V asrlar

Chjou tarixida “ko‘p podsholiklar” davri.

Mil.avv.VI asr (3)

1) yangi buddaviylik dinining yaratildi.
2) Ahamoniylar davlati vujudga kelgan.
3) oxiri – Rim davlati respublika deb yuritila boshlangan.

Mil.avv.VI-V asr

Bronzadan yasalgan qozon (rasm).

Mil.avv.V asr (2)

1) Boshlari – Yunonistonga Forslar tahdid sola boshladilar.
2) Gerodot yashagan va 9 kitobdan iborat “Tarix” asarini yozgan.

Mil.avv.V-IV asrlar (2)

1) Oybo‘yirqal’a yodgorligi shu davrga tegishli (xum sirtiga chekilgan yozuv).
2) O‘rta Osiyo hududida dastlabki tanga pullar tarqalgan.
3) Oltindan yasalgan ot-arava nusxasi (rasm).

Mil.avv.IV asr (2)

1) Buyuk Xitoy devorini qurish boshlandi.
2) Xorazm Ahamoniylar davlatidan ajralib chiqib mustaqil davlatga aylanadi.

Mil.avv.III-II asrlar (2)

1) Qo‘yqirilganqal’adan ayrim mahalliy yozuvlar topilgan.
2) Jonbosqal’a Xorazmning qadimgi shahri bo‘lgan

Mil.avv.III asr (6)

1) Davan davlati tashkil topgan.
2) Qang‘(Qang‘yuy) davlati tashkil topgan. unga saklar asos solgan.
3) boshlari – Rimning barcha fuqarolari mavqeyidan qat’iy nazar qonun oldida teng deb hisoblanadigan qonunlar qabul qilindi.
4) o‘rtalari – Rim butun Italiyani zabt etishga erishdi.
5) Zardusht matnlarining hammasi 21 ta kitobga jamlangan.
6) podsho Ashoka hukmronligi davrida Maurya rivojlanishda yuksak taraqqiyotga erishdi.

Mil.avv.II asr (3)

1) tarixchi olim Poliyen yashagan va Shiroq jasoratini yozgan.
2) Buyuk ipak yo‘li vujudga kelgan.
3) oxiri – Qang‘ davlati qudratli davlat birlashmasiga aylanadi.

Mil.avv.II-I asrlar

Davan davlati yuksak taraqqiy etgan davlatga aylangan.

Mil.avv.I asr (5)

1) Rimda muntazam yollanma qo‘shinlarga tayanuvchi harbiy boshliqlar real kuchga aylandilar.
2) Xorazmda kumush va mis tangalar zarb qilingan.
3) Xitoyda qog‘oz ixtiro qilingan.
4) oxiri – Strabon yashagan va “geografiya” asarini yozgan.

I asr (5)

1) ➦ boshlarida – Rim hokimiyati ostida bo‘lgan Falastin yerlaridagi Vifleem shahrida “Xudoning o‘g‘li” nomini olgan Iso

tug‘ilganligi haqida rivoyatlar keng tarqala boshlagan.
➞ xristianlik vujudga keldi.
2) Guyshuan (Kushon) xonadonining boshlig‘i barcha yuechji mulklarini o‘z hokimiyati ostida birlashtirib, Kushon davlatiga asos soldi.
3) Rim eng yirik va aholisi ko‘p shaharga aylandi.
4) Xorazmda mahalliy taqvim ishlab chiqildi.
5) Kvint Kursiy Ruf “Makedoniyalik Aleksandr tarixi” asarini yozdi.

II asr (3)

1) boshlari – Rimning kuch qudrati qayta tiklandi (Oltin asri)
2) Arrian yashagan. “Aleksandr harbiy yurishlari” nomli asarini yozgan
3) Xitoyda “Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘aloni ro‘y bergan

II-III asrlar (2)

1) Budda boshining tasviri (Dalvarzintepa).
2) Tuproqqal’a shahrida bundan ham ulug‘vor va muhtasham qurilish ishlari amalga oshirilgan.

III asr (4)

1) Qang‘ davlati parchalanib ketgan.
2) Davan davlati parchalanib ketgan.
3) Xan davlati uchta podsholikka parchalanib ketdi.
4) Kushon davlati parchalanib ketdi.

XIX asr

Oxiri – nemis olimi Genrix Shlimann Gomer hikoyalarini tadqiq qilib, Troya joylashgan yerni aniqladi.

YILLAR

Mil.avv.1 mil-100 ming yil-ilk paleolit davri
Mil.avv.100-40-ming yil – o‘rta paleolit davri
Mil.avv.40-12-ming yil – so‘nggi paleolit davri
Mil.avv.12-7-ming yil – mezolit davri
Mil.avv.6-4-ming yil – neolit davri
Mil.avv.4-3-ming yil – eneolit davri
Mil.avv.3-ming yil o‘rtalari-2 ming yil – Bronza davri

Mil.avv.4-mingyillik (8)

1) Qadimgi Sharqda ilk shaharlar va davlatlar vujudga keldi.
2) Mesopatamiyada shumer va akkadlarning manzilgohlari vujudga kelishi.
3) Nil qirg‘oqlarida manzilgohlari vujudga kelishi.
4) Shumerlar mixxatni ixtiro qilishdi.
6) O‘rta Osiyo janubida suniy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik vujudga keldi.
7) xom g‘ishtdan ko‘p xonali uylar qurildi.
8) idishlarni pishirish uchun kulolchilik xumdonlaridan foydalanila boshlandi.
9) sopol idishlar bezatila boshlandi.

Mil.avv.3000-yil

➦ Yuqori va Quyi Misr o‘rtasidagi kurash bo‘ldi. Urushda yuqori misr hukmdori Menes g‘alaba qozondi.
➞ Memfis shahri barpo etildi.

Mil.avv.3-mingyillik (6)

1) Moxenjodaro va Xarappa shaharlari vujudga kelishi
2) Shanga qushni Chjou qabilasi bostirib kirdi
3) Eronning janubi-g‘arbiy qismida Elam davlati vujudga keldi
4) O‘rtalari – Bronza mehnat qurollari qurol-yarog‘lar va zeb-ziynatlar yasashda asosiy ashyoga aylandi
5) ikkinchi yarmi – Sargon I Akkad va Shumer shaharlarini o‘z hokimiyati ostiga birlashtirdi
6) oxiri – Xitoyda ilk davlat Xuanxe daryosining o‘rta oqimida vujudga keldi

Mil.avv.2600-yil

Misrda Xeops piramidasining qurilishi

Mil.avv.3 ming oxiri 2-ming yil boshlari

Zamonbobo va Sopollitepa manzilgohlarining tashkil topishi

Mil.avv.2-mingyillik (7)

1) boshlari – Shumer va Akkad davlatlari parchalanib ketdi
2) Farg‘ona vodiysidan topilgan Ilonlar tasviri tushirilgan tosh tumor topilishi
3) Old Osiyo hududida ilk yirik davlatlarning vujudga kelishi. Ossuriya, Xett, Mitanni
4) Bobil podsholigining tashkil topishi
5) Miken va Krit davlatlarining tashkil topishi
6) Attikaning g‘arbiy qismida yunonlar “Akropol” deb atalgan qal’a quradilar
7) Quyosh xudosi Amon-Ra fir’avnlarning bosh ilohi va homiysi bo‘lgan.

Mil.avv.1792-yil

Bobil Podshosi Xammurapining hukmronligi boshlandi.

Mil.avv.1750-yil

Bobil Podshosi Xammurapining hukmronligi tugadi.

Mil.avv.1200-yil
doriylar Miken davlatini vayronaga aylantirdilar

Mil.avv.1-mingyillik
1) birinchi yarmi – Zardusht yashagan.
2) Temirdan ishlangan xanjar va qin

Mil.avv.776-yil
Olimpiya o’yinlarini birinchi bor o‘tkazildi

Mil.avv.753-yil
Tibr daryosi bo’yida Rim tashkil topdi

Mil.avv.621-yil
Drakont qonunlari qabul qilindi

Mil.avv.605-yil
Ossuriya podsholigi Bobil va Midiya tomonidan qirib tashlanganidan so‘ng parchalanib ketdi

Mil.avv.594-yil
Afinada Solon islohotlari o‘tkazildi

Mil.avv.558-yil
Kir II Fors davlatini birinchi hukmdori bo‘ldi

Mil.avv.539-yil
Bobil Forslar tomonidan bosib olindi

Mil.avv.530-yil
Kir II ning o‘rta osiyoga hujumi va halok bo‘lishi (To‘maris bilan jang)

Mil.avv.525-yil
Misrning Kampiz II tomonidan bosib olinishi

Mil.avv.522-yil (3)
1) Doro I Fors davlati taxtiga chiqdi.
2) Doro I saltanatini satrapliklarga bo‘ldi
3) Doro I ga qarshi Marg‘iyonada Frada qo‘zg‘alon ko‘tardi

Mil.avv.519-yil
Sak qabilalariga qarshi Doro I ning bosqinchilik yurishlari

Mil.avv.509-yil
Rimda Respublikaning e’lon qilinishi

Mil.avv.490-yil
Marafon tekisligidagi Yunon-forslar o‘rtasidagi jang. Yunonlarning g‘alabasi

Mil.avv.480-yil (2)
1) Fermopil janggi Forslarning g‘alabasi bilan tugadi
2) Salamin jangi. Yunonlarning g‘alabasi

Mil.avv.479-yil
Plateya shahri yaqinidagi jang. Yunonlar g‘alabasi

Mil.avv.449-yil
Yunon-Fors urushlari yunonlar g‘alabasi bilan sulh tuzildi

Mil.avv.443-yil
1) Afinada strateg Perikl hukmronligi boshlandi.

Mil.avv 429-yil
1) Afinada strateg Perikl hukmronligi tugadi.

Mil.avv.338-yil
Xeroniya yaqinidagi jang makedoniyaliklar tomonidan yunonlar tor-mor qilinishi

Mil.avv.337-yil
Yunon shaharlarining Makedoniya hokimiyati ostida shahar-davlatlar ittifoqiga birlashishi

Mil.avv.336-yil
Aleksandr Makedoniya podshosi bo‘ldi

Mil.avv.334-yil
Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi boshlandi (10 yil)

Mil.avv.330-yil
M.Aleksandr tomonidan Ahamoniylar saltanatining zabt etilishi Ahamoniylar oxirgi hukmdori Doro III bilan jangi

Mil.avv.329-yil
➦ Aleksandr qo‘shinlari Oksdan o‘tib oldi.
➞ Aleksandr Maroqandni bosib oldi.
➞ Zarafshon daryosi bo‘yidagi Spitamen qo‘shinlari yunon-makedon qo‘shinlarini tor-mor etdi.
➞ Aleksandr lashkarlarini uch qismga bo‘lib, So‘g‘diyonani u boshidan bu boshigacha kezib chiqadi va tinch aholini qirib tashlaydi

Mil.avv.328-yil
Kuzda – Aleksandr va Spitamen janggi (Spitamen mag‘lubiyati)

Mil.avv.327-yil
Aleksandr Makedonskiy Hindistonga yurishi

Mil.avv.323-yil
Makedoniyalik Aleksandr vafot etgan

Mil.avv.312-yil
Salavka hukmronligi boshlandi. Salavkiylar davlati asoschisi

Mil.avv.280-yil
Antiox Salavkiylar davlati hukmdori bo’ldi

Mil.avv.250-yil (2)
1) Baqtriya Salavkiylar davlatidan ajralib chiqadi
2) Parfiya Salavkiylar davlatidan ajralib chiqadi


Mil.avv.246-yil
Sin Shixuandi-Sin davlatining asoschisi bo‘ldi

Mil.avv.216-yil Kann yaqinida Rim armiyasi mag‘lubiyatga uchradi
Mil.avv.206-yil
Lyu Ban qo‘zg‘aloni bo‘ldi
Mil.avv.202-yil
Zama shahri yaqinida rimliklar tomonidan Gannibal armiyasining tor-mor qilinishi
Mil.avv.146-yil
Rimliklar tomonidan Karfagenning tor-mor qilinishi
Mil.avv.140-130 yil
Yunon-Baqtriya davlatining yuechjilar tomonidan bosib olinishi
Mil.avv.74-yil
Spartak qo‘zg‘aloni boshlandi
Mil.avv.71-yil
Spartakka qarshi Mark Krass boshchiligida urush bo‘lib o‘tadi.
Mil.avv.49-yil
Yuliy sezar Rim imperatori bo‘ldi.
Mil.avv.44-yil
Yuliy Sezar hukmronligi tugadi.
Mil.avv.31-yil
Yunoniston qirg‘oqlarida Antoniy va Oktavian flotlati o‘rtasida jang bo‘ldi
Mil.avv.30-yil
➦ Oktavian Misrga yetib keldi;
➞Antoniy va Kleopatra o‘z-o‘zini o‘ldirishdi;
➞Misr Rim provinsiyasiga aylandi;
➞Oktavian Rimning yakka hukmdori bo‘lib qoldi.
Mil.avv.29-yil
Oktavianga Senat tomonidan imperator unvoni va Avgust laqabi berildi
98-yil
Rim imperiyasida Trayan hukmronligi boshlandi
313-yil
Imperator Konstantin xristianlik boshqa dinlarga teng dindir deb e’lon qildi
330-yil
Rim emperiyasi poyaxti-Vizantiy bo‘ldi
394-yil
Olimpia uyinlari o‘tkazilishi to‘xtatildi
395-yil
Rim imperiyasi ikkiga bo‘lindi
410-yil
Alarix boshchiligida gotlar tomonidan Rimning yakson qilinishi
452-yil
Attila boshchiligida Xunn qabilalari Italiyaga bostirib kirdi
455-yil
Rimga vandallar bostirib kirdi
476-yil
➦ Rimdagi yollangan qo‘shini sarkardasi Odoakr so‘nggi imperator Romulni taxtdan ag‘darib tashladi;
➞ Sobiq G‘arbiy Rim imperiyasi sarhadlarini german qabilalari egallab oldilar;
➞ G‘arbiy Rim imperiyasi quladi;
➞ Qadimgi dunyo tarixi yakunlandi;
➞ O‘rta asrlar tarixi boshlandi.
1563-yil Bregel Bobil minorasini rasmini chizgan.
1822-yil
Fransuz olimi Shampolyon Misr matnlarini o‘qishga erishdi.
1877-yil (2)
1) Amudaryo xazinasi topilgan
2) “Buyuk meridianal yo‘lga” Nemis geografi Rixtgofen “Buyuk ipak yo’li” deb nom bergan
1896-yil
Olimpiya o‘yinlari qayta tiklandi.

Dunyo qutblari bilan bog‘liq atamalar…

1. Nil daryosi Afrikaning ***Shimoli-Sharqida*** sivilizatsiya vujudga kelishi uchun zamin yaratgan
2. Misrda ikkita podsho hukmronlik qilgan. Bittasi Quyi***(Shimoliy***) Misrda, boshqasi esa Yuqori ***(Janubiy)*** Misrda davlatni boshqargan
3. Misr ***Janubdan*** Nubiya bilan chegaradosh bo‘lgan
4. Misr ***g‘arbida*** Liviya cho‘lida shu nomdagi mamla- kat joylashgan edi
5. Sinay yarimorolidan ***shimolroqda*** Falastin joylashgan
6. Misrda o‘rta podsholik fir’avnlari ***Janubiy*** Falastin yerlari va Nubiya ***shimolini*** Misrga qo‘shib olishga erishdilar
7. Shumerlar ***Janubiy*** Mesopotamiyaga joylashib, bu yurtni Shumer deb ataydilar. Mamlakatning Akkad deb atalgan ***shimoliy*** qismiga chorvadorlar – akkadlar o‘rnashdi.
8. Bobil podsholigi Mesopotamiya ***janubidagi*** eng yirik qudratli davlatga aylangan
9. Urartu davlati Kavkazortidagi, hozirgi Turkiya ***sharqiy*** qismida va Armaniston hududlarida joylashgan.
10. Finikiya O‘rtayer dengizining ***sharqiy*** qirg‘og‘i bo‘ylab hozirgi Livan va Suriyaning bir qismida joylashgan
11. Kaspiy dengizidan ***janubi-g‘arbda*** joylashgan Midiyada qabilalar ittifoqlari vujudga keldi.
12. Italiyaning ***Shimoli G‘arbiy*** qismida etrusklar yashagan
13. Eronning ***Janubi-G‘arbida*** Elam davlati vujudga kelgan
14. Hindistonni Himolay tog‘lari ***shimoli sharqdan*** dushmanlar va sovuq shamollar jovuzidan o‘ziga xos tabiiy «mudofaa devori» bo‘lib xizmat qilgan.
15. Chandragupta ***Shimoliy*** Hindistondagi barcha davlatlarni o‘z tarkibiga olgan Maurya davlatiga asos solgan.
16. Baqtriyaliklar Surxon vohasi, Afg‘onistonning ***shimoliy,*** Tojikistonning ***janubiy*** hududlarida joylashgan.
17. Yunonistonning eng baland tog‘i Olimpdir. Bu tog‘ mamlakatning ***shimoli sharqiy*** qismida joylashgan.
18. O‘rta Yunonistoning ***janubi sharqiy*** qismida tog‘lik Attika viloyati joylashgan yarimorol mavjud edi.
19. Yunonistondan ko‘chib kelganlar Sitsiliya oroli sohili va Apennin yarimoroli ***janubiqa*** o‘rnashdilar.
20. Attikaning ***G‘arbiy*** qismida yunonlar “Akropol” deb atalgan qal’a quradilar
21. Afrosiyob Samarqandning ***sharqiy*** qismida joylashgan
22. NautakaQashqadaryoning ***sharqiy*** qismida joylashgan.

Izoh va qaydlar uchun



Ish quroling soz bo‘lsa,
mashaqqating oz bo‘lur.



JALOL BOLTAYEV
97 299 00 66
@TESTLIDER



TAQRIZLANGAN, MUKAMMAL TEST TO‘PLAMLARI

EXE (KOMPYUTER) TESTLAR

OPTIMAL QO‘LLANMALAR

Mashqda qanchalik qiyin bo‘lsa,
jangda shunchalik oson bo‘ladi.




GEOGRAFIYA VA TARIX
FANLARIDAN KAFOLATLANGAN (HUJJAT BILAN) O‘QUV KURSI

HAR DARSLIK BO‘YICHA:

- ✓ OPTIMAL SAVOL-JAVOBLAR
- ✓ MAVZULASHTIRILGAN TESTLAR
- ✓ EXE (KOMPYUTER) TESTLAR (HAR DARSLIKDAN: 3000+)
- ✓ BOBLASHTIRILGAN «MAXSUS» TESTLAR
- ✓ QULAY QO‘LLANMALAR
- ✓ XARITALARNI O‘RGANISH UCHUN MAXSUS DASTURLAR
- ✓ AMALIY MASALALAR UCHUN VIDEODARSLAR

KURS DASTURI PROGRESSIV USLUBGA ASOSLANGAN. YA’NI “NOL”DAN “YUZ”GA QARAB BORILADI.



O‘quv kurslarimizga ro‘yxatdan o‘tish uchun:

- Repetitorlar: **Jalol Boltayev, Sherzod Ro‘zmetov**
- Telefon: **(97) 299-00-66**
- Manzil: **Xorazm v. Urganch sh., «Arastu» o‘quv markazi**
- Mo‘ljal: **UrDU ro‘parasi, “Adidas” do‘koni yonida**